Абадий эмасдир г'аму шодлигинг,
То'рт фаслли табиатга о'хшайсан.

62

Кўнглим!

Кимга иссиқ уоқар, кимгадир совуқ,
Кимгадир гул уоқар, кимга чиғмовуқ.
Нар кимнинг о'з та'би, қарашли ботдир,
Меники то'ғ'ри деб ураверма до'қ.

63

Кўнглим!

До'стинг боуи емас, инсофлиси соз,
Кўнглинг қиш бо'lsa гар, аylaгaйдир yoz.
Сен учун hatтоки jонини бергау,
Нар қандау дамингда етгауйдир е'zоз.

64

Кўнглим!

Чекамиз, ичамиз... соғ'лиқ бечора,
Бундан қутулмоқда тополмас чора.
Кун сайин то'килиб, нураб боради,
Танда қоламан деб бо'лар овора.

65

Кўнглим!

Yashash sababini yursam axtarib,
Ko'pchilik aytganday, qolartman qatib.
Yaxshiliklar qilsam, qilsam savoblar,
Alloh dorgohida qolmam qizarib.

71

66

Кўнглим!

Осмонга кўл чўзмам, барибир етмас,
Доим рост сўзласам, обрўйим кетмас.
Бировнинг ортидан айтмам ёмон сўз,
Мен ҳақда ҳам ҳеч ким ёмон сўз айтмас.

67

Кўнглим!

Орзулар жуда кўп, ушалмас бари,
Лекин кетолмайсан улардан нари.
Энди орзу эмас, армондир улар,
Тубингга чўкади бир тош сингари.

68

Кўнглим!

Ҳеч кимга қилмасман зарра ёмонлик,
Тангридан сўрарман ризқу омонлик.
Бобо-момоларим шундай яшашган,
Улар зурриёдиман — Ўзбекистонлик.

69

Кўнглим!

Бола тарбияси энг улуг ишдир,
Ота-она бурчи муқаддас бурчдир.
Бу бурчига кимки қилса хиёнат,
Унинг қолган умри ҳеч кетмас қишдир.

70

Кўнглим!

Ўғри ушланса фош, сазо бўлади,
Ушланмаса гўё “тоза” бўлади.
Бундайлар ўйламас охирини ҳеч,
Уларга вақтинча “маза” бўлади.

72

66

Ko'nglim!

Osmonga qo'l cho'zmay, bariyir yetmas,
Doim rost so'zlasam, obro'yim ketmas.
Birovning ortidan aytmay yomon so'z,
Men haqda ham hech kim yomon so'z aytmas.

67

Ko'nglim!

Orzular juda ko'p, ushalmas bari,
Lekin ketolmayсан ulardan nari.
Endi orzu emas, armondir ular,
Tubingga cho'kadi bir tosh singari.

68

Ko'nglim!

Hech kimga qilmasman zarra yomonlik,
Tangridan so'ragman rizqu omonlik.
Bobo-momolaring shunday yashashgan,
Ular zurriyodiman — O'zbekistonlik.

69

Ko'nglim!

Bola tarbiyasi eng ulug' ishdir,
Ota-ona burchi muqaddas burchdir.
Bu burchiga kimki qilsa xiyonat,
Uning qolgan umri hech ketmas qishdir.

70

Ko'nglim!

O'g'ri ushlansa fosh, sazo bo'ladi,
Ushlanmasa go'yo “toza” bo'ladi.
Bundaylar o'ylamas oxirini hech,
Ularga vaqtincha “maza” bo'ladi.

73

Кўнглим!

Шоир шеър ёзмайди шуҳрат, пул учун,
ёки олқиш учун ёки гул учун.

“Ватан тўзал бўлсин, тўзал бўлсин қалб!”
Шоир шеър ёзди фақат шул учун.

Кўнглим!

Шоир на майпараст, на бир дарвишдир,
Шоир ёмонликка теккан қарғишдир.

Унинг ҳаёти ҳам тўфонларга бой,
Кўрганлари кўпроқ дарду ташвишдир.

Кўнглим!

Чинакам шоирлар халқ дардин олар,
Қалбларга ишончу умидлар солар.

Йиллару асрлар ўтаверди,
Уларнинг шеърлари мангута қолар.

Кўнглим!

Шеър ёзсанг, лек сenga тан бермаса эл,
Демак бошқа ишга боғлайвертиг бел.

Шоирнинг қудрати унинг сўзида,
Тинглаган тош қотсин, оқсин бўлиб сел.

Кўнглим!

Янги шеър ёзишга шайланганим чоғ,
Бошловчи шоирдай сезаман ўзни.

Ахир осон эмас яратмоқлик боғ,
Жилловлаш осонмас дилдаги сўзни.

Ko'nglim!

Shoir she'r yozmaydi shuhrat, pul uchun,
Yoki olqish uchun, yoki gul uchun.

“Vatan go'zal bo'lsin, go'zal bo'lsin qalb!”
Shoir she'r yozadi faqat shul uchun.

Ko'nglim!

Shoir na mayparast, na bir darvishdir,
Shoir yomonlikka tekkan qarq'ishdir.

Uning hayoti ham to'fonlarga boy,
Ko'rganlari ko'proq dardu tashvishdir.

Ko'nglim!

Chinakam shoirlar xalq dardini olar,
Qalblarga ishonchu umidlar solar.

Yillar va asrlar o'tavradi,
Ularning she'rlari manguga qolar.

Ko'nglim!

She'r yozsang, lek senga tan bermasa el,
Demak boshqa ishga bog'layvergil bel.

Shoirning qudrati uning so'zida,
Tinglagan tosh qotsin, oqsin bo'lib sel.

Ko'nglim!

Yangi she'r yozishga shaylanganim chog',
Boshlovchi shoirday sezaman o'zni.

Axir oson emas yaratmoqlik bog',
Jilovlash osonmas dildagi so'zni.

Кўнглим!

Сўз ўйини эмас, агар билсанг, шеър,
Аввало мазмунга эътиборинг бер.
Мужассам айлагил фикр, туйғуни,
Шундан сўнг сўзларни маржон каби тер.

Кўнглим!

Агар юратгимни бермасам шеърга,
У ўхшаб қолади қақраган ерга.
Юраксиз яшолмас шеър ҳам одамдек,
Хизмат қилолмайди ҳеч қачон элга.

Кўнглим!

Инсоннинг бўй-баста, исми, шарифи,
Асло бўлолмайди унинг таърифи.
Инсоннинг кимлигин кўрсатар рўй-рост,
Унинг ишларию умрин тарихи.

Кўнглим!

Китобга меҳрини кўйган ҳар бола
Фикри тиниқлашар мисли шалола.
Ўз келажатига кўйиб пойдевор,
Етишиб боради тинмай камолга.

Кўнглим!

Улар бир-бирларига қараб ўтишар
Ва бир-бирларидан салом куттишар.
Жуъратми ... нимадир етишмас шу пайт,
“Салом”ни ноилож ичга ютишар.

Ко'нглим!

So'z o'yini emas, agar bilsang, she'r,
Avvalo mazmunga e'tiboring ber.
Mujassam aylagil fikr, tuyg'uni,
Shundan so'ng so'zlarni marjon kabi ter.

Ко'нглим!

Agar yuragimni bermasam she'r-ga,
U o'xshab qoladi qaqragan yerga.
Yuraksiz yasholmas she'r ham odamdek,
Xizmat qilolmaydi hech qachon elga.

Ко'нглим!

Insonning bo'y-basti, ismi, sharifi,
Aslo bo'lolmaydi uning ta'rifi.
Insonning kimligin ko'rsatar ro'y-rost,
Uning ishlarayu umrin tarixi.

Ко'нглим!

Kitobga mehriini qo'ygan har bola
Fikri tinirlashar misli shalola.
O'z kelajagiga qo'yib пойdevor,
Yetishib boradi tinmay kamolga.

Ко'нглим!

Ular bir-birlariga qarab o'tishar
Va bir-birlaridan salom kutishar.
Ju'rati ... nimadir yetishmas shu payt,
“Salom”ni noiloj ichga yutishar.

Кўнглим!

“Шерингиз ўқидим, ёқди жуда ҳам,
Кўз узгим келмади ҳатто тунда ҳам”.
Шоирларга бундан зўр мукофот йўқ,
Чиройли очилар тонгги гулдан ҳам.

Кўнглим!

Тоглар қучоғида улғайиб, ўсдим,
Майса булоқларни дея чин дўстим.
Бутун шаҳардаман, тоғлардан йироқ,
Улар армонимдир, улар кам-кўстим.

Кўнглим!

Ширин ҳаёл сурсам, яшнаб кетасан,
Баҳордаги қирга ўхшаб кетасан.
Қайғу, ташвишларнинг домиди қолсам,
Қафсдаги қушдай фйгон этасан.

Кўнглим!

Дарахт суянчилиги — илдири бордир,
Осмоннинг файз, хусни — юлдузи бордир.
Ёруғ кун кўрмадим дея нолима,
Қоронғу дунёнинг кундузи бордир.

Кўнглим!

Кўнгли олмай, сўзга чечанман демам,
Дилдаги туғунни ечаман демам.
Сез, чуқурлигин билмасдан туриб,
Дарёни бемалоғ кечаман демам.

Ko'nglim!

“She” ringiz o'qiding, yoqdi juda ham,
Ko'z uzgim kelmadi hatto tunda ham”.
Shoirlarga bundan zo'r mukofot yo'q,
Chiroyli ochilar tonggi guldan ham.

Ko'nglim!

Tog'lar quchoq'ida ulg'ayib, o'sdim,
Maysa buloqlarni deya chin do'stim.
Bugun shahardaman, tog'lardan yiroq,
Ular armonimdir, ular kam-ko'stim.

Ko'nglim!

Shirin xayol sursam, yashnab ketasan,
Bahordagi qirga o'xshab ketasan.
Qayg'u, tashvishlarning domida qolsam,
Qafsdagi qushday fig'on etasan.

Ko'nglim!

Daraxt suyanchlig'i — ildizi bordir,
Osmo'ning fayz, husni — yulduzi bordir.
Yorug' kun ko'rmadim deya noli'ma,
Qorong'u dunyo'ning kunduzi bordir.

Ko'nglim!

Ko'ngli olmay, so'zga chечanman demam,
Dildagi tugunni yechaman demam.
Savoz, chuqurligin bilmasdan turib,
Darvoni bemalol kечaman demam.

86

Кўнглим!
Эзгулик деб ёнтил, ҳасаддан ёнма,
Қасос деб ёнмагил, ҳеч қасддан ёнма.
Лекин ошиқ бўлсанг, ёнтил гуриллаб,
Асло тутаматил, ҳеч аста ёнма.

87

Кўнглим!
Кимдир оллоҳ тараф, ким шайтон тараф,
Ким разолат тараф, ким имон тараф.
Иккита тарафта бўлинган дунё,
Кетиб бораётир қаяққа қараб?!

88

Кўнглим!
Наҳотки бир умр ўтсам армонда,
Унга ошиқ бўлиб, бўлиб зорманда?
Мендан марҳаматин аямасин ёр,
Ёнига соғиниб, интиқ борганда.

89

Кўнглим!
Аввало бизларга онадир аёл,
Меҳрибон, оқила, донодир аёл.
Яшайдан мазмуну маъно қидирдик,
Ниҳоят биз топган маънодир аёл.

90

Кўнглим!
Шамолда ўйнаган буғдой бошоғи,
Тўлқинлар рақсини эслатди чоғи.
Кўз олдимга келди улкан бир дентиз,
Лекин кўринмасди унинг адоғи.

80

86

Ko'nglim!
Ezgulik deb yongil, hasaddan yonma,
Qasos deb yonmagil, hech qasddan yonma.
Lekin oshiq bo'lsang, yongil gurillab,
Aslo tutamagil, hech asta yonma.

87

Ko'nglim!
Kimdir olloh taraf, kim shayton taraf,
Kim razolat taraf, kim imon taraf.
Ikkita tarafga bo'lingan dunyo,
Ketib borayotir qayoqqa qarab?!

88

Ko'nglim!
Nahotki bir umr o'tsam armonda,
Unga oshiq bo'lib, bo'lib zormanda?
Mendan marhamatin ayamasin yor,
Yoniga sog'inib, intiq borganida.

89

Ko'nglim!
Avvalo bizlarga onadir ayol,
Mehtibon, oqila, donodir ayol.
Yashashdan mazmunu ma'no qidirдик,
Nihoyat biz topgan ma'nodir ayol.

90

Ko'nglim!
Shamolida o'yinagan bug'doy boshog'i,
To'lqinlar raqsini eslatdi chog'i.
Ko'z oldimga keldi ulkan bir dengiz,
Lekin ko'rinmasdi uning adog'i.

81

91

Кўнглим!

Бойлик йиққанлардан кулиб ўтарман,
Бу ишнинг аксини қилиб ўтарман.
Пушаймон бўлмасман бундан заррача,
Нафсининг бағрини тилиб ўтарман.

92

Кўнглим!

Тириклик рангидир яшил ранг асли,
Бу рангсиз ғарибдир уйғониш фасли.
Мен ҳам шайдосиман бу рангнинг беҳад,
Шу рангда товланар юратим акси.

93

Кўнглим!

Ваъдасига вафо қилмаган одам,
Шармандалик сари кўяди қадам.
Оброў-этибордан айрилиб шаксиз,
Кўзига қоронғу бўлади олам.

94

Кўнглим!

Деҳқонни чўчитмас жалаю шамол,
Ҳалол меҳнат билан топади камол.
Элнинг ризқ-рўзини ўйлаб яшайди,
Кўнглига келмайди заррача малол.

95

Кўнглим!

Роҳатни кам кўрдим, ташвишни кўпроқ,
Насиб ҳам қилмади чин устоз кўрмоқ.
Асл китобларга шогирд тутиндим,
Мақсадим — уларга муносиб бўлмоқ.

82

91

Ko'nglim!

Boylik yiqqanlardan kulib o'tatman,
Bu ishning aksini qilib o'tatman.
Pushaymon bo'lmasman bundan zarracha,
Nafsning bag'ini tilib o'tatman.

92

Ko'nglim!

Tiriklik rangidir yashil rang asli,
Bu rangsiz g'aribdir uyg'onish fasli.
Men ham shaydosiman bu rangning behad,
Shu rangda tovlanar yuratim aksi.

93

Ko'nglim!

Va'dasiga vafo qilmagan odam,
Sharmandalik sari qo'yadi qadam.
Obro'-e'tibordan ayrilib shaksiz,
Ko'ziga qorong'u bo'ladi olam.

94

Ko'nglim!

Dehqonni cho'chitmas jalayu shamol,
Halol mehnat bilan topadi kamol.
Elning rizq-ro'zini o'ylab yashaydi,
Ko'ngliga kelmaydi zarracha malol.

95

Ko'nglim!

Rohatni kam ko'rdim, tashvishni ko'proq,
Nasib ham qilmadi chin ustoz ko'rmoq.
Asl kitoblarga shogird tutindim,
Maqsadim — ularga munosib bo'lmoq.

83

96

Кўнглим!

Ҳаётда имиллаб яшаман сира,
Бундай умр, ахир, нурсиз ва хира.
Дунёга келикми, яшайлик ёниб,
Орда излар қолсин — ёрқин хотира.

97

Кўнглим!

Дунёда китобдек қимматли дур йўқ,
Ҳаттоки офтобда ундаги нур йўқ.
Бу нурни қалбига сингдирганлардан,
Ўтар доно йўқдир, кучлироқ, зўр йўқ.

98

Кўнглим!

Ҳар кимнинг бир суянчиғи бўлади,
У туфайли инсон кучли бўлади.
Ҳеч ким айрилмасин суянчиғидан,
Айрилиқ алами аччиқ бўлади.

99

Кўнглим!

Олисларда юрсак мусофир бўлиб,
Бизни ўзбек дедлар дўшпимиз кўриб.
Дўшпида мужассам юртимиз акси,
Биз уни киямиз фаҳрга тўлиб.

100

Кўнглим!

Фамни чақирмайсан, ўзи келади,
Ортингдан қидириб, излаб келади.
Шодликни чорласанг ёз чоғларида,
Қиш пайти қалтираб, музлаб келади.

84

96

Ko'nglim!

Hayotda imillab yashaman sira,
Bunday umr, axir, nursiz va xira.
Dunyoga keldikmi, yashaylik yonib,
Orda izlar qolsin — yorqin xotira.

97

Ko'nglim!

Dunyoda kitobdek qimmatli dur yo'q,
Hattoki oftoabda undagi nur yo'q.
Bu nurni qalbiga singdirganlardan,
O'tar dono yo'qdir, kuchliroq, zo'r yo'q.

98

Ko'nglim!

Har kimning bir suyanchig'i bo'ladi,
U tufayli inson kuchli bo'ladi.
Hech kim ayilmasin suyanchig'idan,
Aytiliq alami achchiq bo'ladi.

99

Ko'nglim!

Oliqlarda yursak musofir bo'lib,
Bizni o'zbek dertlar do'srimiz ko'rib.
Do'srida mujassam yurtimiz aksi,
Biz uni kiyamiz faxrga to'lib.

100

Ko'nglim!

G'amni chaqirtmaysan, o'zi keladi,
Ortingdan qidirib, izlab keladi.
Shodlikni chorlasang yoz cho'g'larida,
Qish payti qaltirab, muzlab keladi.

85

101

Кўнглим!

Тулкилар ҳеч қачон шер бўлолмайдди,
Шерлар каби мағрур, зўр бўлолмайдди.
Асло кечолмайдди айёрлигидан,
Гар шундай қилмаса, кун кўролмайдди.

102

Кўнглим!

Инсон бу оламга йиғлаб келади,
Бунинг сабабини оллоҳ билади.
Бу дунёдан ўтар чоғида эса,
Чинакам яшаса, албат қулади.

103

Кўнглим!

Асло қизикмадим амал, бойликка,
Яшадим меҳнатим — ҳалол ойликка.
Лекин ўзлимдан сира кечмадим,
Кўп нарса керакмас олдий тоғликка.

104

Кўнглим!

Агар чин юракдан қилинса дуо,
Моддийга айланиб, бўлгандир зиё.
Ёритгай инсоннинг умр йўлини,
Дуодан ёришгай ҳаттоки дунё.

105

Кўнглим!

Олма барги меvasидан кўп бўлтай,
Ёмон қовун уруғи ҳам хўб бўлтай.
Мен зўрман деб ҳеч кўксимга урмасман,
Йўғон дарахт бир кун бориб чўп бўлтай.

86

101

Ko'nglim!

Tulkilar hech qachon sher bo'lolmaydi,
Sherlar kabi mag'zur, zo'r bo'lolmaydi.
Aslo kecholmaydi ayuorligidan,
Gar shunday qilmasa, kun ko'rolmaydi.

102

Ko'nglim!

Inson bu olamga yig'lab keladi,
Buning sababini olloh biladi.
Bu dunyodan o'tar chog'ida esa,
Chinakam yashasa, albat kuladi.

103

Ko'nglim!

Aslo qiziqmadim amal, boylikka,
Yashadim mehnatim — halol oylikka.
Lekin o'zligimdan sira kechmadim,
Ko'r narsa kerakmas oddiy tog'likka.

104

Ko'nglim!

Agar chin yurakdan qilinsa duo,
Moddiyga aylanib, bo'lgaydir ziyo.
Yoritgay insonning umr yo'lini,
Duodan yoritshgay hatto ki dunyo.

105

Ko'nglim!

Olma bargi mevasidan ko'r bo'lgay,
Yomon qovun urug'i ham xo'b bo'lgay.
Men zo'tman deb hech ko'ksimga utmasman,
Yo'g'on daraxt bir kun borib cho'r bo'lgay.

87

106

Кўнглим!

Гоҳо олов, гоҳи намдир кўзимда,
Гоҳо шодлик, гоҳи намдир кўзимда.
Кўларимга боқиб бўлмагил хайрон,
Сенинг туғёнларинг жамдир кўзимда.

107

Кўнглим!

Кимгадир хуш ёқар хафа бўлишим,
Ҳаттоки истайди бевақт сўлишим.
У учун мусибат, катта фожиа,
Озгина қувониб, озроқ кулишим.

108

Кўнглим!

Совуқдан шамоллаб, гар бўлсам йўтал,
Бундан ташвишланиб юрмам у маҳал.
Ўзимни кўярга тополмайман жой,
Мабодо фарзандим шамолласа сал.

109

Кўнглим!

Мени шоир дерлар, лекин шоирлик,
Менга ҳам баъзида қилар оғирлик.
Ҳақиқий, чин шоир бўлмоқ осонмас,
Токи мавжуд экан алдов, олғирлик.

110

Кўнглим!

Мазасиз луқмани ютиш қийиндир,
Керакли лаҳзани кутиш қийиндир.
Омад ўзи келмас, бахт ўзи келмас,
Заҳматсиз уларни тутиш қийиндир.

88

106

Ко'нглим!

Go'ho olov, gohi namdir ko'zimda,
Go'ho shodlik, gohi namdir ko'zimda.
Ko'zlarimga boqib bo'lmagil hayron,
Sening tug'yonlaring jamdir ko'zimda.

107

Kunglim!

Kimga'dir xush yoqar xafa bo'lishim,
Hattoki istaydi bevaqt so'lishim.
U uchun musibat, katta fojia,
Ozgina quvonib, ozroq kulishim.

108

Ко'нглим!

Sovuqdan shamollab, gar bo'lsam yo'tal,
Bundan tashvishlanib yutmam u mahal.
O'zimni qo'yarga topolmayman joy,
Mabodo farzandim shamollasa sal.

109

Ко'нглим!

Meni sho'ir derlar, lekin sho'irlik,
Menga ham ba'zida qilar og'irlik.
Haqiqiy, chin sho'ir bo'lmoq osonmas,
Toki mavjud ekan aldov, olg'irlik.

110

Ко'нглим!

Mazasiz luqmani yutish qiyindir,
Kerakli lahzani kutish qiyindir.
Omad o'zi kelmas, baxt o'zi kelmas,
Zahmatsiz ularni tutish qiyindir.

89

111

Кўнглим!

Тун чоғи юлдузли осмонга боқиб,
Тенгсиз гўзалликдан юракни ёқиб,
Сухбатлашиб ўтирганга не етсин,
Сезмайсан кетса-да оппоқ тонг отиб.

112

Кўнглим!

Ёринг қаттиқ севсанг, у сени суйса,
У деб ёнсанти сени деб куйса,
Бундан ҳам ортиқ бахт бормикан ўзи,
Арзийди бир умр шод ўйнаб, кулсанг.

113

Кўнглим!

Мени менсиммаган одамни мен ҳам,
Назарга илмасман ҳеч қачон, ҳеч дам.
Саломга яраша алик дейдилар,
Нима экса, шунини ўради одам.

114

Кўнглим!

Тубанлик ботқоғи ҳар жойда ҳозир,
У бизни қомита тортмоққа қодир.
Ундан қутқаради фақат ҳалоллик,
Ҳалоллик йўқ жойда ҳалокага бордир.

115

Кўнглим!

Қалбида эзгулик бўлмаган инсон,
Бировга яхшилик қилмас ҳеч қачон.
Яхши ёр бўлолмас, бўлолмас дўст ҳам,
Ким унга ишонса, бўлмай тушаймон.

90

111

Кўнглим!

Тун чоғи юлдузли осмонга боқиб,
Тенгсиз го'залликдан юракни уюқиб,
Сухбатлашиб о'тирганга не yetсин,
Sezmaysan ketse-da orpoq tong o'tib.

112

Кўнглим!

Yoring qat'iq sevsang, u seni suysa,
U deb yonsangu seni deb kuysa,
Bundan ham ortiq baxt bormikan o'zi,
Arziydi bir umr shod o'ynab, kulasang.

113

Кўнглим!

Meni mensimagan odamni men ham,
Nazarga ilmasman hech qachon, hech dam.
Salomga yarasha alik deytilar,
Nima eksa, shuni o'radi odam.

114

Кўнглим!

Tubanlik botqog'i har joyda hozir,
U bizni komiga tortmoqqa qodir.
Undan qutqaradi faqat halollik,
Halollik yo'q joyda halokat bordir.

115

Кўнглим!

Qalbida ezgulik bo'lmagan inson,
Birovga yaxshilik qilmas hech qachon.
Yaxshi yor bo'lolmas, bo'lolmas do'st ham,
Kim unga ishonse, bo'lga y pushaymon.

91

116

Кўнглим!

Пишган он сузмасанг, ланж бўлади ош,
Вақтида айтмасанг, сўзинг бўлар тош.
Мурод-мақсадингга етолмайсан ҳеч,
Ҳаракат қилмасанг бўлганингда ёш.

117

Кўнглим!

Назаримда вақтинг қаноти бордай,
Кўз олдимда кунлар эрийди қордай.
Шу битта саволга топмадим жавоб:
Вақт қайси манзилга шошилиб боргай?

118

Кўнглим!

Ёлғону сохталик инсонга хосмас,
Тўғрилиқ ўрнини ҳеч нарса босмас.
Алдоқчининг сўзи туғул, умри ҳам
Ёлғонга қурилган, заррача ростмас.

119

Кўнглим!

Телефонда сўзлашарди бир одам,
Кўксига кўлини кўйиб дамбадам.
Лабидан аримас сохта табассум,
Сездимки, гаплашар бошлиғи билан.

120

Кўнглим!

Фолиблар доимо бўлар ҳурматда,
Уларни олқишлар кичиғу катта.
Бу заҳматли кунлар мукофотидир,
Чап бериш осонмас мағлубиятга.

92

116

Ko'nglim!

Pishgan on suzmasang, lanj bo'ladi osh,
Vaqtida aytmasang, so'zing bo'lar tosh.
Murod-maqsadingga yetolmayсан hech,
Harakat qilmasang bo'lganingda yosh.

117

Ko'nglim!

Nazarimda vaqtning qanoti borday,
Ko'z oldimda kunlar eriydi qorday.
Shu bitta savolga topmadim javob:
Vaqt qaysi manzilga shoshilib borganay?

118

Ko'nglim!

Yolg'ону soxtalik insonga xosmas,
To'g'rilik o'rini hech narsa bosmas.
Aldoqchining so'zi tugul, umri ham
Yolg'onga qurilgan, zarracha gostmas.

119

Ko'nglim!

Telefonda so'zlashardi bir odam,
Ko'ksiga qo'lini qo'yib dambadam.
Labidan arimas soxta tabassum,
Sezdimki, gaplashar boshlig'i bilan.

120

Ko'nglim!

G'oliblar doimo bo'lar hurmatda,
Ularni olqishlar kichig'u katta.
Bu zahmatli kunlar mukofotidir,
Chap berish osonmas mag'lubiyatga.

93

121

Кўнглим!

Ҳаётда инсоннинг бўлмас ёмони,
Ёмон феъли бордир, бор ёмон номи.
Улардан қутулмоқ мушкиндир бешак,
Лекин бу — дунёнинг манту армони.

122

Кўнглим!

Тўлин ой тун чоғи сирли туюлар,
Ҳатто қуёшдан ҳам нузли туюлар.
Унинг атрофида юлдузлар гужгон,
Минг хилда товланиб, турли туюлар.

123

Кўнглим!

Хўракка алданиб, балиқ бечора,
Қармоққа илинар — манглайи қора.
Ўзин ҳар томонга урар типирлаб,
Чора тополмасдан бўлар овора.

124

Кўнглим!

Шундай гўзаллар бор — қараб қоласан,
Бир олам завқу шавқ, ором оласан.
Ички дунёсидан бўлгач хабардор,
Ҳафсаланг пир бўлиб, ўйга толасан.

125

Кўнглим!

Бировларга баҳо берганда баъзан,
Орта чекинамиз ўзгичимиздан.
Амал, бойлигига бўлиб маҳлиё,
Хижолат чекмаймиз сўзларимиздан.

121

Ко'нглим!

Навоида инсоннинг бо'лмас уюмони,
Уюмон фе'ли бордир, бор уюмон номи.
Улардан қутулмоқ мушкиндир бешак,
Лекин бу — дунёнинг мангу армони.

122

Ко'нглим!

То'лин ой тун чоғи сирли туюлар,
Натто қуёшдан ҳам нузли туюлар.
Унинг атрофида юлдузлар г'ужгон,
Минг хилда товланиб, турли туюлар.

123

Ко'нглим!

Хо'ракка алданиб, балиқ бечора,
Қармоққа иллар — манглайи қора.
О'зин ҳар томонга урар типирлаб,
Чора тополмасдан бо'лар овора.

124

Ко'нглим!

Shunday go'zallar bor — qatib qolasan,
Bir olam zavqu shavq, o'rom olasan.
Ichki dunyosidan bo'lgach xabardor,
Hafsalang pir bo'lib, o'uga tolasan.

125

Ко'нглим!

Birovlarga baho berganda ba'zan,
Orta chekinamiz o'zligimizdan.
Amal, boyligiga bo'lib mahliyo,
Xijolat chekmaymiz so'zlarimizdan.

126

Кўнглим!
Шамол оғушида тебранар шохлар,
Шохлар қучоғида ўйнар япроқлар.
Қуёш юқоридан боқар ҳайратда,
Силаб чарчамайди заррин бармоқлар.

127

Кўнглим!
Баъзилар негадир қийналган они,
Эслаб қолишди дарров худони.
Бошқа пайтлар эса эслашмайди ҳеч,
Ҳатто йўқлашмайди ота-онани.

128

Кўнглим!
Бола кулгусидан олам ёришар,
Юраклар шодлигу нурга қоришар.
Бола ўқиганда, йиғлаганда зор,
Ота-она нақ ўн йилга қаришар.

129

Кўнглим!
Инсоннинг оёғи етди ойга ҳам,
Етар бундан олис жойга ҳам.
Ақл, тафаккурга йўқдир ниҳоя,
Лекин қалб тубига етолмас одам.

130

Кўнглим!
Авалло ўзингга ишонч сўнмасин,
Умидсизлик — гўёор дилга кўнмасин.
Шунда енголмайди сени ҳеч бир куч,
Рақибинг мард бўлсин, номард бўлмасин.

126

Ko'nglim!
Shamol og'ushida tebranar shoxlar,
Shoxlar quchoғ'ida o'ynar yaproqlar.
Quyosh yuqoridan boqar hayratda,
Silaб charchamaydi zarrin batmoqlar.

127

Ko'nglim!
Ba'zilar negadir qiyналgan oni,
Eslab qolishadi darrov xudoni.
Boshqa paytlar esa eslashmaydi hech,
Hatто yo'qlashmaydi ota-onani.

128

Ko'nglim!
Bola kulgusidan оlam yorishar,
Yuraklar shodligu nurga qorishar.
Bola o'ksiganda, yig'laganda zot,
Ota-ona naq o'n yilga qarishar.

129

Ko'nglim!
Insonning oyog'i yetdi oyga ham,
Etar bundan olis joyga ham.
Aql, tafakkurga yo'qdir nihoya,
Lekin qalb tubiga yetolmas odam.

130

Ko'nglim!
Avallo o'zingga ishonch so'nmasin,
Umidsizlik — g'ubor dilga ko'nmasin.
Shunda yengolmaydi seni hech bir kuch,
Raқibing marд bo'lsin, nomard bo'lmasin.

131

Кўнглим!
Шўр туз билан таом ширин бўлгандир,
Чиқим бўлган жойда кириб бўлгандир.
Қанча заҳмат чексам, қанча тўксам тер,
Ишимда шунчалик унум бўлгандир.

132

Кўнглим!
Неки хато қилсам, жазоси бўлмай,
Тугилган ҳар ненинг қазоси бўлмай.
Бир хиллик қидирмам инсон зотида,
Ўн қовуннинг ўн хил мазаси бўлмай.

133

Кўнглим!
Фарҳод тирик бўлса, Ширин ҳаётдир,
Лайининг қувончи Қайста қаноғдир.
Уларни ажратиш ўлим билан тенг,
Лекин ёмонларга бу бир одағдир.

134

Кўнглим!
Дунё кўрди сон-саногсиз урушни,
Қабилалар, мамлакатлар... уршишди.
Аммо бундан ҳеч ким кўрмади роҳат,
Фақат улар бир-бирларин қиршишди.

135

Кўнглим!
Бир тўзални кўриб, оғзим очилди,
Кўзларимдан тинмай хайрат сочилди.
Оддий инсонми у ёки фариста?
Фарқ этолмай қолдим тапнинг очиги.

98

131

Ko'nglim!
Sho'r tuz bilan taom shirin bo'lgaydir,
Chiqim bo'lgan joyda kirib bo'lgaydir.
Qancha zahmat cheksam, qancha to'ksam ter,
Ishimda shunchalik unum bo'lgaydir.

132

Ko'nglim!
Ne'ki xato qilsam jazosi bo'lgay,
Tug'ilgan har nening qazosi bo'lgay.
Bir xillik qidirmam inson zotidan,
O'n qovunning o'n xil mazasi bo'lgay.

133

Ko'nglim!
Farhod tirik bo'lsa, Shirin hayotdir,
Laylining quvonchi Qaysga qanoqdir.
Ularni ajratish o'lim bilan teng,
Lekin yomonlarga bu bir odatdir.

134

Ko'nglim!
Dunyo ko'rdi son-sanogsiz urushni,
Qabilalar, mamlakatlar... urishishdi.
Ammo bundan hech kim ko'rmasdi rohat,
Faqat ular bir-birlarin qirishdi.

135

Ko'nglim!
Bir go'zalni ko'rib, og'zim ochildi,
Ko'zlarimdan tinmay hayrat sochildi.
Oddiy insonmi u yoki farishta?
Farq etolmay qoldim gapning ochig'i.

99

136

Кўнглим!
Орзулар қиламан ушалмаса ҳам,
Лекин мен эмасман хомхайёл одам.
Орзулар мента куч, қувонч бахш этар,
Тушқунлик, ғамларга берарман барҳам.

137

Кўнглим!
Юқорилаб борган сари осмонга,
Нафас олиш қийинлашар инсонга.
Ҳеч қачон заминдан кетмам йироқлаб,
Ҳавосиз яшамок ахир осонмас.

138

Кўнглим!
Маҳлиё бўлмагил дерлар, ҳусниниға,
“Ҳусн туйда керак. ақл ҳар кунда.”
Ақлин чархлаб борса, кимки пешма-пеш,
Ҳар қандай мушкулни енголтай шунда.

139

Кўнглим!
Ўзбекнинг паловин бир марта еган,
Кўзидан ўт чақнаб: “О ширин!” деркан.
Орадан ўтса ҳам қанча ой, йиллар,
У палов таъминини унутмас экан.

140

Кўнглим!
Одамлар ишончин оқламасак тар,
Бизга муносабат тубдан ўзгарад.
Оброў-эътибордан айрилиб шаксиз,
Кўрганнимиз бўлар ғам-андух, зарар.

100

136

Ko'nglim!
Orzular qilaman ushalmasa ham,
Lekin men emasman xomxayol odam.
Orzular menga kuch, quvonch baxsh etar,
Tushkunlik, g'amlarga beratman barham.

137

Ko'nglim!
Yuqorilab borgan sari osmonga,
Nafas olish qiyinlashar insonga.
Hech qachon zamindan ketmam yiroqlab,
Navosiz yashamoq axir osonmas.

138

Ko'nglim!
Mahliyo bo'lmagil derlar, husningga,
“Husn to'uda kerak. aql har kunda.”
Aqlin charxlab borsa, kimki reshma-resh,
Har qanday mushkulni yengolgay shunda.

139

Ko'nglim!
O'zbekning palovin bir marta yegan,
Ko'zidan o't chaqnab: “O shirin!” derkan.
Oradan o'tsa ham qancha oy, yillar,
U palov ta'mini unutmaz ekan.

140

Ko'nglim!
Odamlar ishonchin oqlamasak gar,
Bizga munosabat tubdan o'zgarar.
Obro'-e'tibordan aytilib shaksiz,
Ko'rganimiz bo'lar g'am-anduh, zarar.

101

141

Кўнглим!
Янграса “Тановар”, “Лазги” куйлари,
Ёлга тушар она юртим тўйлари.
Ўйнамаган қолмайди бу куйларга,
Кўринади миллатимнинг бўйлари.

142

Кўнглим!
Илм билан қалбим кўзини очди,
Меҳри ҳам мўл эди — тинмасдан сочди.
Кимдир устоз дейди, кимдир муаллим,
Улуғ инсон бўлиб дилимга кўчди.

143

Кўнглим!
Умр бўйи тинмай йўллар босгаймиз,
“Манзилга етайлик” дея шошгаймиз.
Етгач, янги манзил чорлар бизларни,
Бизлар кўпроқ йўловчига ўхшаймиз.

144

Кўнглим!
Оху нолаларим қайта ҳам еттай,
Ёрим тингламаса сўзларим атай.
Лекин дардларим ҳам юракка сиймас,
Энди мен уларни қудуққа айттай.

145

Кўнглим!
Сухбатни қизитар ҳангома-ю чой,
Баъзилар айтгандай, қизитмайди май.
Лекин айримлар бор: сухбатни кўйиб,
Ароқ ичишади тинмай, пайдар-пай.

102

141

Ko'nglim!
Yangrasa “Tanovar”, “Lazgi” kuylari,
Yodga tushar ona yurtim to'ylari.
O'ynamagan qolmaydi bu kuylarga,
Ko'rinadi millatimning bo'ylari.

142

Ko'nglim!
Ilm bilan qalbim ko'zini ochdi,
Mehti ham to'li edi - tinmasdan sochdi.
Kimdir ustoz deydi, kimdir muallim,
Ulug' inson bo'lib dilimga ko'chdi.

143

Ko'nglim!
Umr bo'y i tinmay yo'llar bosgaymiz,
“Manzilga yetaylik” deya shoshgaymiz.
Yetgach, yangi manzil chorlar bizlatni,
Bizlar ko'proq yo'lovchiga o'xshaymiz.

144

Ko'nglim!
Ohu nolalarim qayta ham yetgay,
Yotim tinglamasa so'zlarim atay.
Lekin dardlarim ham yurakkka sig'mas,
Endi men ularni quduqqa aytay.

145

Ko'nglim!
Suhbatni qizitar hangoma-yu choi,
Ba'zilar aytganday, qizitmaydi mai.
Lekin ayrimlar bor: suhbatni qo'yib,
Aroq ichishadi tinmay, paydar-pay.

103

146

Кўнглим!
Жиддийдир, ўйчандир, шўхдир, қувноқдир,
Сахийдир, зикнадир, марддир, кўрқоқдир.
Нақадар хилма-хил бу инсон зоти,
Яхшилари ёмонидан кўпроқдир.

147

Кўнглим!
Мени парча етдан катта қиларди,
Гўёки тош қазиб, шахта қиларди.
Кўлини тиг кесса оҳ чекмас онам,
Менга шамол тегса, ваҳма қиларди.

148

Кўнглим!
Уйимда онамнинг ўрни билинар,
Юракда айрилиқ дарди билинар.
Бахтиёр эканман онам бағрида,
Энди у дамларнинг қадри билинар.

149

Кўнглим!
Онам дийдорини кўмсайман бот-бот,
Кўксимга тигларин қадаса ҳаёт.
Энг оғир дамларда онам кўлларди,
Ўлим барчасини айлади барбод.

150

Кўнглим!
Фаришта аслида бизнинг онамиз,
Лекин баъзан буни сезмай қоламиз.
Сал уйда бўлмаса, қадри билинар,
Хувиллаб қолгандай бўлар хонамиз.

104

146

Ko'nglim!
Jiddiydir, o'ychandir, sho'xdir, quvnoqdir,
Saxiydir, ziqnadir, marddir, qo'rqqidir.
Naqadar xilma-xil bu inson zoti,
Yaxshilari yomonidan ko'proqdir.

147

Ko'nglim!
Meni parcha etdan katta qilardi,
Go'yoki tosh qazib, shaxta qilardi.
Qo'lini tig' kessa oh chekmas onam,
Menga shamol tegsa, vahma qilardi.

148

Ko'nglim!
Uyimda onamning o'gni bilinar,
Yurakda ayriliq dardi bilinar.
Baxtiyor ekanman onam bag'rida,
Endi u damlarning qadri bilinar.

149

Ko'nglim!
Onam diydorini qo'msayman bot-bot,
Ko'ksimga tig'larin qadasa hayot.
Eng og'ir damlarda onam qo'llardi,
O'lim barchasini ayladi barbod.

150

Ko'nglim!
Farishta aslida bizning onamiz,
Lekin ba'zan buni sezmay qolamiz.
Sal uyda bo'lmasa, qadri bilinar,
Huvillab qolganday bo'lar xonamiz.

105

151

Кўнглим!
Биринчи ҳофиздир албатта она,
Олам долдир, алла айтганда она.
Ҳаёт ўзи нима? Нимадир ватан?
Уларни ҳам бизга аниқлатган она.

152

Кўнглим!
Асло узиб бўлмас она қарзини,
Аммо унутмайлик бола фарзини.
Она дуосини олайлик кўпроқ,
Кўпроқ эштайлик унинг арзини.

153

Кўнглим!
Она фарзанд учун берар жонини,
Фарзанд деб ўтказар барча онини.
Яхшими, ёмонми, фарзандим дейди,
Ҳар қандай ҳолатда олар ёнини.

154

Кўнглим!
Оналар тил, ранги бошқа бўлса ҳам,
Меҳрда бўлмаган бир-биридан кам.
Кувонч, ташвишлари жуда ўхшашдир,
Ҳаттоки ўхшашдир улар чеккан гам.

155

Кўнглим!
Оналар урушни истамас ҳеч вақт,
Уруш бўрон бўлса, оналар — даракт.
Дуо қилишди тинчлик бўлсин деб,
Тинч ҳаётда яшаш улар учун бахт.

106

151

Ko'nglim!
Birinchii hofizdir albatta ona,
Olam loldir, alla aytganda ona.
Hayot o'zi nima? Nimadir vatan?
Ulatni ham bizga aniqlatgan ona.

152

Ko'nglim!
Aslo uzib bo'lmas ona qarzini,
Ammo unutmaylik bola farzini.
Ona duosini olayik ko'proq,
Ko'proq eshitaylik uning arzini.

153

Ko'nglim!
Ona farzand uchun betar jonini,
Farzand deb o'tkazar barcha onini.
Yaxshimi, yomonmi, farzandim deydi,
Har qanday holatda olar yonini.

154

Ko'nglim!
Onalar til, rangi boshqa bo'lsa ham,
Mehtda bo'lmagan bir-biridan kam.
Quvonch, tashvishlari juda o'xshashdir,
Hattoki o'xshashdir ular chekkan g'am.

155

Ko'nglim!
Onalar urushni istamas hech vaqt,
Urush bo'ron bo'lsa, onalar — daraxt.
Duo qilishadi tinchlik bo'lsin deb,
Tinch hayotda yashash ular uchun baxt.

107

156

Кўнглим!
Ўзи касал бўлса, индамас она,
Фарзанд бемор бўлса, чидамас она.
Тузалгунга қадар жони ҳалаклир,
Айланиб, ўргилиб чарчамас она.

157

Кўнглим!
Сен тоза бўлмасанг, кетгайдир имон,
Сен зимистон бўлсанг, аҳволим ёмон.
Инсоф, диёнатдан мосуво бўлсанг,
Яшашга ҳаққим йўқ, эмасман инсон.

158

Кўнглим!
Шундай гўзал бордир — илҳом париси,
Унга ошиқ ижодкорнинг бариси.
Қачон келиб, кетишини билмаслар,
Ундан таралади гул ва ёр иси.

159

Кўнглим!
Жило тошган каби ишланган олмос,
Инсон ҳам меҳнатдан бахт топгани рост.
Лоқайдлик, ялқовлик — бахт кўшандаси,
Ҳеч қачон уларга қўймагин ихлос.

160

Кўнглим!
Орзулар кўп бўлар боғалик чоғи,
Санасанг кўринмас улар адоғи.
Бизларни олдинга чорлар тўхтовсиз,
Орзулар аслида умр байроғи.

108

156

Ko'nglim!
O'zi kasal bo'lsa, indamas ona,
Farzand bemor bo'lsa, chidamas ona.
Tuzalgunga qadar joni halakdir,
Aylanib, o'rgilib charchamas ona.

157

Ko'nglim!
Sen toza bo'lmasang, ketgaidir imon,
Sen zimiston bo'lsang, ahvolim yomon.
Insof, diyonatdan mosuvo bo'lsang,
Yashashga haqqim yo'q, emasman inson.

158

Ko'nglim!
Shunday go'zal border — ilhom parisi,
Unga oshiq ijodkorning barisi.
Qachon kelib, ketishini bilmaslar,
Undan taraladi gul va yor isi.

159

Ko'nglim!
Jilo torgan kabi ishlangan olmos,
Inson ham mehnatdan baxt tovgani rost.
Loqaydlik, yalqovlik — baxt kushandasi,
Hech qachon ularga qo'ymagin ixlos.

160

Ko'nglim!
Orzular ko'p bo'lar bolalik chog'i,
Sanasang ko'rinmas ular adog'i.
Bizlarni oldinga chorlar to'xtovsiz,
Orzular aslida umr bayrog'i.

109

161

Кўнглим!
Ўзганинг бахтидан яйра ва қувон,
Лекин ҳасад қилма унга ҳеч қачон.
Бахтиёр одамлар кўпайса ерда,
Демак шодлигинг ҳам ортар бегумон.

162

Кўнглим!
Севганинг ёнгингда турса ярақлаб,
Қалбинг ҳам юлдуздай кетар чарақлаб.
Дунё кўзларингга кўриниб гўзал,
Лаҳзаларни ичгинг кетар қадаҳлаб.

163

Кўнглим!
Тупроқдан яралди, тупроққа қайтар,
Инсоннинг ҳаёти жумбоқ нақадар.
Уни ечаман деб бўлмам овора,
Ҳеч ким ечолмади то бизга қадар.

164

Кўнглим!
Омал келганида, қолайлик ушлаб,
Асраб-авайлайлик кўнглини хушлаб.
Лекин лоқайд бўлсак, бўлсак бепарво,
Худди бегонадай кетади ташлаб.

165

Кўнглим!
Агарда тинч бўлса, иш жой, oilаси,
Хотиржам яшайди инсон боласи.
Акси бўлса, бунга чидолмайди у,
Ер-кўкни тўлдиран фитон, ноласи.

110

161

Ko'nglim!
O'zganing baxtidan yauva va quvon,
Lekin hasad qilma unga hech qachon.
Baxtiyor odamlar ko'paysa yerda,
Demak shodliging ham ortar begumon.

162

Ko'nglim!
Sevganing yongingda tursa yaraqlab,
Qalbing ham yulduzday ketar charaqlab.
Dunyo ko'zlaringga ko'rinib go'zal,
Lahzalarni ichging ketar qadahlab.

163

Ko'nglim!
Tuproqdan yaraldi, tuproqqa qaytar,
Insonning hayoti jumboq naqadar.
Uni yechaman deb bo'lmam ovora,
Hech kim yecholmadi to bizga qadar.

164

Ko'nglim!
Omad kelganida, qolgaulik ushlab,
Asrab-avaylaylik ko'nglini xushlab.
Lekin loqayd bo'lsak, bo'lsak beparvo,
Xuddi begonaday ketadi tashlab.

165

Ko'nglim!
Agarda tinch bo'lsa, ish joy, oilasi,
Xotirjam yashaydi inson bolasi.
Aksi bo'lsa, bunga chidolmaydi u,
Er-ko'kni to'ldirar fit'on, polasi.

111

166

Кўнглим!
 Орни жиловландан кўра ҳаётда,
 Нафсни жиловлаш қийин одадда.
 Шунданми, айримлар нафсига банди,
 Хиёнат қилади халққа, давлатга.

167

Кўнглим!
 Тоғларни босганда зич, қалин туман,
 Ён-атрофни кўриб бўлмас умуман.
 Пул, бойликдан кўр бўлганларни кўрсам,
 Шу манзара ўтар дарров ўйимдан.

168

Кўнглим!
 Ўзбегим ҳовлиси чиннидай тоза,
 Ҳавасим келади, қиламан маза.
 Бу хислат ҳўс эди аждолларга ҳам,
 Биз эса улардан олдиқ андоза.

169

Кўнглим!
 Ул гўзал қошида доимо лолман,
 Ақлу хушдан жудо, ҳардамҳайман.
 Тикилиб тўймасман юз-кўзларига,
 Ҳайратдан донг қотиб, тинган шамолман.

170

Кўнглим!
 Бўлсанг-да билимдон, доно қанчалик,
 Метёрни билмаслик — катта камчилик.
 Метёр бу фаросат, инсоф демоктир,
 Уларсиз қадринг йўқ битта ақчалик.

112

166

Ko'nglim!
 Otni jilovlashdan ko'ra hayotda,
 Nafsni jilovlash qiyin odatda.
 Shundanmi, ayrimlar nafsiga bandi,
 Xiyonat qiladi xalqqa, davlatga.

167

Ko'nglim!
 Tog'larni bosganda zich, qalin tuman,
 Yon-atrofni ko'rib bo'lmay umuman.
 Pul, boylikdan ko'r bo'lganlarni ko'rsam,
 Shu manzara o'tar darrov o'yimdan.

168

Ko'nglim!
 O'zbekim hovlisi chinniday toza,
 Havasim keladi, qilaman maza.
 Bu xislat xos edi ajdodlarga ham,
 Biz esa ulardan oldik andoza.

169

Ko'nglim!
 Ul go'zal qoshida doimo lolman,
 Aqlu hushdan judo, har dam hayuman.
 Tikilib to'y masman yuz-ko'zlariga,
 Hayratdan dong qotib, tingan shamolman.

170

Ko'nglim!
 Bo'lsang-da bilimdon, dono qanchalik,
 Me'yorni bilmaslik — katta kamchilik.
 Me'yor bu farosat, insof demakdir,
 Ularsiz qadring yo'q bitta aqchalik.

113

171

Кўнглим!

Инсон зоти яхши яшасам дейди,
Яхши кийиб, яхши ошасам дейди.
Кимдир шу ниётда тинмай тўқар тер,
Кимдир меҳнат қилмай, яшнасам дейди.

172

Кўнглим!

Интизмас олдинга, "қотганлар" бордир,
Лоқайдлик лойига ботганлар бордир.
Боқимандаликни одат қилганлар,
Кўздан чалпак кутиб ётганлар бордир.

173

Кўнглим!

Бу қадим дунёни севги бошқарар,
Шубҳасиз кўшилар бунга бошқалар.
Чунки ҳамма севган, ҳатто севади,
Ёшлари тўқсондан, юздан ошганлар.

174

Кўнглим!

Авайламаймиз ҳеч соғлигимизни,
Англамаймиз унга боғлиқлигимизни.
У биздан аразлаб, ташлаб кетганда,
Тушунамиз хато қилганимизни.

175

Кўнглим!

Меҳримиз доимо фаввора бўлсин,
Ҳамма бир-бири деб овора бўлсин.
Катталар ёшларга иззатда бўлса,
Ёшлар катталарга парвона бўлсин.

171

Ко'нглим!

Инсон зоти яхши яшасам дейди,
Яхши кийиб, яхши ошасам дейди.
Кимдир шу ниётда тинмай то'қар тер,
Кимдир меҳнат қилмай, яшнасам дейди.

172

Ко'нглим!

Интизмас олдинга, "қотганлар" бордир,
Лоқайдлик лойига ботганлар бордир.
Боқимандаликни одат қилганлар,
Ко'кдан чалпак кутиб ютганлар бордир.

173

Ко'нглим!

Бу қадим дунёни севги бошқарар,
Шубҳасиз қо'шлар бунга бошқалар.
Чунки ҳамма севган, ҳатто севади,
Юшлари то'қсондан, юздан ошганлар.

174

Ко'нглим!

Авайламаймиз ҳеч соғ'лигимизни,
Англамаймиз унга боғ'лиқлигимизни.
У биздан аразлаб, ташлаб кетганда,
Тушунамиз хато қилганимизни.

175

Ко'нглим!

Меҳримиз доимо фаввора бо'лсин,
Ҳамма бир-бири деб овора бо'лсин.
Катталар юшларга иззатда бо'лса,
Юшлар катталарга парвона бо'лсин.

176

Кўнглим!

Агар севолмаса кимнидир инсон,
Уни айбдор деб бўлмас ҳеч қачон.
Буйруқ берилмайдиган юракка, лекин
Ватанини севмаслик — бу жуда ёмон.

177

Кўнглим!

Инсоннинг умри ҳам боқий асليда,
Бўни биз англаймиз ҳар куз фаслида.
Саргайган япроқлар бир-бир тўкилар,
Қайтадан ёшариш, яшаш қасдида.

178

Кўнглим!

У хурсанд бўлади қалбни яраб,
Асабни эговлаб, жонни поралаб.
Бундайларнинг оллоҳ бергай жазосин,
Шармисор қилгайдир юзин қоралаб.

179

Кўнглим!

Қумларни биттаб санаб бўлмайди,
Ҳеч қачон тақдирни танлаб бўлмайди.
Англашга уринма севги сирини,
Бўнинг иллати йўқ — англаб бўлмайди.

180

Кўнглим!

Амалга ошмайди истак ҳаминча,
Бу эса бизларни солар ташвишга.
Имконга мос келмас истак, хоҳишлар,
Маҳкумimiz сабр-ла чидаб яшашга.

116

176

Кўнглим!

Агар севолмаса кимнидир инсон,
Уни айбдор деб бўлмас ҳеч қачон.
Буйруқ берилмайдиган юракка, лекин
Ватанини севмаслик — бу жуда ёмон.

177

Кўнглим!

Инсоннинг умри ҳам боқий асليда,
Бўни биз англаймиз ҳар куз фаслида.
Саргайган япроқлар бир-бир то'килар,
Қайтадан яшартиш, яшаш қасдида.

178

Кўнглим!

У хурсанд бўлади қалбни яраб,
Асабни эговлаб, жонни поралаб.
Бундайларнинг оллоҳ бергай жазосин,
Шармисор қилгайдир юзин қоралаб.

179

Кўнглим!

Қумларни биттаб санаб бўлмайди,
Ҳеч қачон тақдирни танлаб бўлмайди.
Англашга уринма севги сирини,
Бўнинг иллати йўқ — англаб бўлмайди.

180

Кўнглим!

Амалга ошмайди истак ҳаминча,
Бу эса бизларни солар ташвишга.
Имконга мос келмас истак, хоҳишлар,
Маҳкумimiz сабр-ла чидаб яшашга.

117

181

Кўнглим!
Калдирғоч уйлارға уя курғайдир,
Кўрқмасдан, бемалол учиб юргайдир.
У жу́да ишонар инсонға, аммо
Инсон бир-биридан чўчиб турғайдир.

182

Кўнглим!
Вақт чопқир, тезобдир бизлардан кўра,
Шунданми, бўшлиқ кўп излардан кўра.
Аммо мақсадига етар интилган,
Кўп ҳосил берғайдир кузлардан кўра.

183

Кўнглим!
Севгидан кечмаслар азоб берса ҳам,
Ундан кўпроқ ташвиш, алам келса ҳам.
Севги худди қалампирға ўхшайди,
Хуш кўрарлар уни, аччиқ бўлса ҳам.

184

Кўнглим!
Куёшта асрлар дахл қилолмас,
Неча ёшта кирар? Ҳеч ким билолмас.
Унинг бор вужуди меҳр, оловдир,
У доим кулади, лекин йиғлолмас.

185

Кўнглим!
Кўмирни ювсанг ҳам кетмас қораси,
Ташвишни қувмоқнинг йўқдир чораси.
Бўлмаганни асло бўлдириб бўлмас,
Бунни кеч англайди инсон боласи.

181

Ko'nglim!
Qaldir'och uylarga uya qurgaydir,
Qo'rqmasdan, bemalol uchib yurgaydir.
U juda ishonar insonga, ammo
Inson bir-biridan cho'chib turgaydir.

182

Ko'nglim!
Vaqt chopqir, tezobdir bizlardan ko'ra,
Shundanmi, bo'shiq ko'p izlardan ko'ra.
Ammo maqsadiga yetar intilgan,
Ko'r hosil bergaydir kuzlardan kura.

183

Ko'nglim!
Sevgidan kechmaslar azob bersa ham,
Undan ko'proq tashvish, alam kelsa ham.
Sevgi xuddi qalampirga o'xshaydi,
Xush ko'tarlar uni, achchiq bo'lsa ham.

184

Ko'nglim!
Quyoshga asrlar daxl qilolmas,
Necha yoshga kirar? Hech kim bilolmas.
Uning bor vujudi mehr, olovdir,
U doim kuladi, lekin yig'lolmas.

185

Ko'nglim!
Ko'mirni yuvsang ham ketmas qorasi,
Tashvishni quvmog'ning yo'qdir chorasi.
Bo'lmaganmi aslo bo'ldirib bo'lmaz,
Buni kech anglaydi inson bolasi.

186

Кўнглим!
Таннинг оғриғини олса шифокор,
Жоннинг оғриғини олар дўсту ёр.
Лекин бир саволга топмадим жавоб:
Виждон азобига ким даво топар?

187

Кўнглим!
Замину осмонга посбон ҳам инсон,
Машҳури жаҳондир, дoston ҳам инсон.
Беш кунлик дунёда яшаганида,
Яхши ҳам инсондир, ёмон ҳам инсон.

188

Кўнглим!
Дарахнинг меvasи, соyasi яхши,
Булбулнинг овози, ноlasi яхши.
Дунёда инсондан не наф бўлуси?
Унинг тарбияли боласи яхши.

189

Кўнглим!
Милтиқ овозига тўлса-да ер-кўк,
Нишонга тегмади овчи отган ўк.
Овчи қовоғидан ёғар эди қор,
Лекин хурсанд эди қуш ўзиди йўк.

190

Кўнглим!
Умр дарахт бўлса, болалик — гунча,
Орзиқиб кутамиз у очилгунча.
Очилгач, кўмсаймиз гунчани такрор,
Аmmo у қайтмайди келса ҳам баҳор.

120

186

Ko'nglim!
Tanning og'rig'ini olsa shifokor,
Jonning og'rig'ini olar do'stu yor.
Lekin bir savolga topmadim javob:
Vijdon azobiga kim davo topar?

187

Ko'nglim!
Zaminu osmonga posbon ham inson,
Mashhuri jahondir, doston ham inson.
Besh kunlik dunyoda yashaganida,
Yaxshi ham insondir, yomon ham inson.

188

Ko'nglim!
Darahtning mevasi, soyasi yaxshi,
Bulbulning ovozi, nolasi yaxshi.
Dunyoda insondan ne naf bo'lg'usi?
Uning tarbiyali bolasi yaxshi.

189

Ko'nglim!
Miltiq ovozig'a to'lsa-da yer-ko'k,
Nishonga tegmadi ovchi otgan o'q.
Ovchi qovog'idan yog'ar edi qor,
Lekin xursand edi qush o'zida yo'q.

190

Ko'nglim!
Umr daraxt bo'lsa, bolalik — g'uncha,
Orziqib kutamiz u ochilguncha.
Ochilgach, qo'msaymiz g'unchani takror,
Ammo u qaytmaydi kelsa ham bahor.

121

191

Кўнглим!

Қадимда ишланган нодир тангалар,
Турли хил шаклда, турли рангдалар.
Уларнинг олдиди ўзин йўқотиб,
Ҳақ йўлдан адашган ғофил бандалар.

192

Кўнглим!

Кимни урганини ҳис этмас яшин,
На қайғу чекади, на тўқар ёшин.
Афсус, яшынсифат одамлар ҳам бор,
Ўзганинг дарди деб қотирмас бошин.

193

Кўнглим!

Меҳрда онадан кам эмас ота,
Болам деб жонини беради ҳатто.
Меҳр-муҳаббатин қилмайди ошкор,
Фарзандим яшаса дейди беҳато.

194

Кўнглим!

Ширин лаҳзаларнинг ўтмоғи осон,
Кўлдан пул, бойликнинг кетмоғи осон.
Лекин жуда қийин ғамнинг кетмоғи,
Шодликнинг бошига етмоғи осон.

195

Кўнглим!

Бўрини ўргатиб бўлмайди кўлга,
У ҳеч қачон кирмас биз айтган йўлга.
Унинг юрагида эркинлик ҳоким,
Бўйсиндираман деб овора бўлма.

122

191

Ko'nglim!

Qadimda ishlangan nodir tangalar,
Turli xil shaklda, turli rangdalar.
Ularning oldida o'zin yo'qotib,
Haq yo'ldan adashgan g'ofil bandalar.

192

Ko'nglim!

Kimni urganini his etmas yashin,
Na qayg'u chekadi, na to'kar yoshin.
Afsus, yashinsifat odamlar ham bor,
O'zganing dardi deb qotirmas boshin.

193

Ko'nglim!

Me'rda onadan kam emas ota,
Bolam deb jonini bergadi hatto.
Me'r-muhabbatin qilmaydi oshkor,
Farzandim yashasa deydi be'xato.

194

Ko'nglim!

Shirin lahzalarning o'tmog'i oson,
Qo'ldan pul, boylikning ketmog'i oson.
Lekin juda qiyin g'amning ketmog'i,
Shodlikning boshiga yetmog'i oson.

195

Ko'nglim!

Bo'rini o'rgatib bo'lmaydi qo'lga,
U hech qachon kirmas biz aytgan yo'lga.
Uning yuragida erkinlik hokim,
Bo'yisindiraman deb ovo'ga bo'lma.

123

196

Кўнглим!
Уй, ҳовли деб айтиш тўғри келмайди,
Кошона демаса сира бўлмайди.
Қирқта хонаси бор, лек эгасига
Бу ҳам кам кўринар — кўзи тўймайди.

197

Кўнглим!
Тили жулда захар, илон тан берар,
Чаён баҳс бойлашса, у ҳам ён берар.
Қардан олгандир мунча захарни,
Тишласа, аждар ҳам шу пайт жон берар.

198

Кўнглим!
Калта кўйлак кийишни суйишади,
Тўёки замонга мос кийишади.
Фурури тоғдан ҳам баланд қизлар бор,
Улар ўзбегимга хос кийишади.

199

Кўнглим!
Бир ишни бошлашдан олдин ўйлаш соз,
Шошқалоқликдан ташвиш кўп, фойда оз.
Пушаймон қилади хом ўйлаганлар,
Ҳеч қачон топмайди эл ичра эъзоз.

200

Кўнглим!
Арслон борки, сира қайтмас изидан,
Бошқаданмас, уялади ўзидан.
Ахир унинг арслонлиги шундандир,
Йўқса фарқ қилмайди олдий кўзидан.

124

196

Ko'nglim!
Uy, hovli deb aytish to'g'ri kelmaydi,
Koshona demasa sira bo'lmaydi.
Qirg'ta xonasi bor, lek egasiga
Bu ham kam ko'rinar — ko'zi to'ymaydi.

197

Ko'nglim!
Tili juda zahar, ilon tan berar,
Chayon bahs boylashsa, u ham yon berar.
Qayerdan olgandir muncha zaharni,
Tishlasa, ajdar ham shu payt jon berar.

198

Ko'nglim!
Kalta ko'ylak kiyishni suyishadi,
Go'yoki zamonga mos kiyishadi.
G'ururi tog'dan ham baland qizlar bor,
Ular o'zbekimga xos kiyishadi.

199

Ko'nglim!
Bir ishni boshlashdan oldin o'ylash soz,
Shoshqaloqlikdan tashvish ko'p, foyda oz.
Pushaymon qiladi xom o'ylaganlar,
Hech qachon topmaydi el ichra e'zoz.

200

Ko'nglim!
Arslon borki, sira qaytmas izidan,
Boshqadamtas, uyaladi o'zidan.
Axir uning arslonligi shundadir,
Yo'qsa farq qilmaydi oddiy qo'zidan.

125

201

Кўнглим!
Ақл эмас, пул бoшқарса одамни,
Зулмат қоплар ўша лаҳза оламни.
Пулга банди одамлардан кўрқаман,
Фарқ қилмайди ҳалол билан ҳаромни.

202

Кўнглим!
Сўзи билан иши бoшқа, қарасанг,
Юзи тиник, ичи қашқа, қарасанг.
Бир қарашда билиб бўлмас ҳеч нени,
Олмосдай товланар, тошга қарасанг.

203

Кўнглим!
Ҳар бир сўзи ҳикмат, Юсуф Ҳожибнинг,
Ҳар бир сатри ҳиммат, Юсуф Ҳожибнинг.
Фақат илм элни бахтга етказай,
Мақсади — маърифат, Юсуф Ҳожибнинг.

204

Кўнглим!
Навоий севгани — оқил инсонлар,
Тарбияли, хушсўз, аҳил инсонлар.
Ҳар бир ёзган сатри шундан далolat,
Навоий орзуси — комил инсонлар.

205

Кўнглим!
Навоийни билган асло кам бўлмас,
Боши тик бўлду лекин ҳам бўлмас.
Ақли ойдай тўлиб, қалби юксалар,
Нафсига ҳокимдир, ҳеч қарам бўлмас.

126

201

Ко'нглим!
Ақл емас, пул бoшқарса одамни,
Зулмат қоплар о'ша лаҳза оламни.
Пулга банди одамлардан қo'рқаман,
Фарқ қилмайдй ҳалол билан ҳаромни.

202

Ко'нглим!
So'zi bilan ishi boshqa, qarasang,
Yuzi tiniq, ichi qashqa, qarasang.
Bir qarashda bilib bo'lmас hech neni,
Olmosday tovlanar, toshga qarasang.

203

Ко'нглим!
Har bir so'zi hikmat, Yusuf Hojibning,
Har bir satrй himmat, Yusuf Hojibning.
Faqat ilm elni baxtga yetkazgay,
Maqsadi — ma'rifат, Yusuf Hojibning.

204

Ко'нглим!
Navoiy sevgani — oqil insonlar,
Tartibiyali, xushso'z, ahil insonlar.
Har bir yozgan satrй shundan dalolat,
Navoiy orzusi — komil insonlar.

205

Ко'нглим!
Navoiynи bilgan aslo kam bo'lmas,
Boshi tik bo'laru lekin ham bo'lmas.
Aqli oday to'lib, qalbi yuksalar,
Nafsiga hokimdir, hech qarам bo'lmas.

127

206

Кўнглим!
Турди Фароғий бу — авлиё одам,
Ўзбекни бирликка chorлаган мудом.
Унинг орзулари бутун ушалди,
Бизга ҳавас билан боқмоқда олам.

207

Кўнглим!
Сўзласам тараща тушгандай томдан,
Танбех эшитардим ҳар бир одамдан.
Сўзладим ётиғи билан, мулоийим,
Мени тингладилар берилиб обдон.

208

Кўнглим!
Дарди йўқ кимсалар дардинг тушунмас,
Қалби кўр кимсалар қалбинг тушунмас.
Умрида бировни севамаган одам,
Севгини тушунмас, бахтинг тушунмас.

209

Кўнглим!
Олдингда мақтайди, ортингдан сўқар,
Кўлидан келганча обрўйинг тўқар.
Агар бахтинг чоппиб, кулса омадинг,
Аламдан тик қалди бир зумда чўқар.

210

Кўнглим!
Молимга керилсам, хато қилгайман,
Кибрга берилсам, жарга қулайман...
Ҳаёт қонунлари жуда шafқатсиз,
Уларни бузсам гар, хароб бўлгайман.

128

206

Ко'нглим!
Турди Фароғ'ий бу — авлиё одам,
О'zbekни birlikка chorлаган мудом.
Унинг орзулари бутун ушaldi,
Bizga havas bilan boqmoqda olam.

207

Ко'нглим!
So'zlasam tarasha tushganday tomdan,
Tanbeh eshitardim har bir odamdан.
So'zladim yotig'i bilan, muloyim,
Meni tingladilar berilib obdon.

208

Ко'нглим!
Dardi yo'q kimsalar darding tushunmas,
Qalbi ko'r kimsalar qalbing tushunmas.
Umrida bironi sevmagan odam,
Sevgini tushunmas, baxting tushunmas.

209

Ко'нглим!
Oldingda maqtaydi, otingdan so'kar,
Qo'ldan kelganча obro'ying to'kar.
Agar baxting chopib, kulsa omading,
Alamdан tik qaddi bir zumda cho'kar.

210

Ко'нглим!
Molimga kerilsam, xato qilgaуman,
Kibrga berilsam, jarga qulayman...
Hayot qonunlari juda shafqatsiz,
Ularni buzсам gar, xarob bo'lgayman.

129

211

Кўнглим!

Бир жойда турмайди кўй билан бўри,
Йўқса шу он кўйнинг курийдди шўри.
Эгрилик бор жойдан тўғрилиқ кетар,
Ёмонлар бўлмасин дунёнинг зўри.

212

Кўнглим!

Дутор куйларини тинглаган дамда,
Ором таралади қондай танамга.
Тугамаса дейман сира бу куйлар,
Келгандай бўламан қайта оламга.

213

Кўнглим!

Айиқлар ухлайди уйғонмай қишда,
На овқат ейишар, на чиқар ташта...
Жуда фаройибдир тантри ишлари,
Ожизман уларни таҳлил этишга.

214

Кўнглим!

Усиз яшолмайман — жуда севаман,
Юзма-юз келаман ҳар кун у билан.
Оҳангробаси борми шеърининг?
Ёнидан бир зум ҳам жилмай қоламан.

215

Кўнглим!

Осон иш бўлмайди дунёда, билсанг,
Албат урдалайсан ҳаракат қилсанг.
Биргина истакнинг ўзи етмайди,
Орзуинг ушлар олға интилсанг.

211

Ко'нглим!

Бир жойда турмаydi qo'y bilan bo'ri,
Yo'qsa shu on qo'yning qur'iydi sho'ri.
Egriлик bor joydan to'g'riлик ketar,
Yomonlar bo'lmasin dunyoning zo'ri.

212

Ко'нглим!

Dutor kuylarini tinglagan damda,
Orom taraladi qonday tanamga.
Tugamasa deymen sira bu kuylar,
Kelganday bo'laman qayta olamga.

213

Ко'нглим!

Ayiqlar uxlaydi uy'g'onmay qishda,
Na ovqat ye'ishar, na chiqar tashga...
Juda g'aroyibdir tangri ishlari,
Ojizman ularni tahlil etishga.

214

Ко'нглим!

Usiz yasholmayman — juda seva-man,
Yuzma-yuz kelaman har kun u bilan.
Ohangrobasi bormi she'riyatining?
Yonidan bir zum ham jilmay qolaman.

215

Ко'нглим!

Oson ish bo'lmaydi dunyoda, bilsang,
Albat uddalaysan harakat qilsang.
Birgina istakning o'zi yetmaydi,
Orzuing ushalar olg'a intilsang.

216

Кўнглим!

Туяга ёқади жуда ҳам янтоқ,
Менга эса ёқар тўғрисиўз ўртоқ.
Тўғри сўз фойдали аччиқ бўлса ҳам,
Ширин сўзнинг баъзан зарари кўпроқ.

217

Кўнглим!

Тоҳида нафсини қондирмоқ учун,
Инсон сарф қилади бор имкон, кучин.
Аслида нафсни қондириш эмас,
Уни жиловлашдир инсоннинг бурчи.

218

Кўнглим!

Ҳайвондан фарқимиз ақлимиз билан,
Қамолга етамиз фаҳимиз билан.
Жаҳлга эрк бериш подоннинг иши,
Ақлимиз кетади жаҳлимиз билан.

219

Кўнглим!

Эрта не бўлишин билгайдир оллоҳ,
Бизни баюлардан қилгайдир огоҳ.
Шунда ҳам гафлатда ётганлар бордир,
Бир кун афсус ила чекадилар оҳ.

220

Кўнглим!

Эзгулик нелитин билмаганлар бор,
Умрида яхшилик қилмаганлар бор.
Хоҳ ишонтил бунга, хоҳи ишонма,
Чиройи очилиб, кўлмаганлар бор.

216

Ko'nglim!

Tuyaga yoqadi juda ham yantoq,
Menga esa yoqar to'g'riso'z o'rtiq.
To'g'ri so'z foydali achchiq bo'lsa ham,
Shirin so'zning ba'zan zarari ko'proq.

217

Ko'nglim!

Gohida nafsini qondirmoq uchun,
Inson sarf qiladi bor imkon, kuchin.
Aslida nafsni qondirish emas,
Uni jilovlashdir insonning burchi.

218

Ko'nglim!

Hayvondan farqimiz aqlimiz bilan,
Kamolga yetamiz fahmimiz bilan.
Jahlg'a erk berish podonning ishi,
Aqlimiz ketadi jahlimiz bilan.

219

Ko'nglim!

Erta ne bo'lishin bilgaydir olloh,
Bizni balolardan qilgaydir ogoh.
Shunda ham g'aflatda yotganlar bordir,
Bir kun afsus ila chekadilar oh.

220

Ko'nglim!

Ezgulik nelingin bilmag'lar bor,
Umrida yaxshilik qilmag'lar bor.
Xoh ishongil bunga, xohi ishonma,
Chiroyi ochilib, kulmag'lar bor.

221

Кўнглим!
Бировлар ичидан қайнаб гап чиқар,
Лекин бундан, айттигил, қандай наф чиқар?
Яхшиям қуш эмас, одамдир улар,
Йўқса уйқусида ҳам сайраб чиқар.

222

Кўнглим!
Ўзгага насиҳат қилиш хўб осон,
Қуруқ насиҳатни ёқтирмас инсон.
Қийналган чоғида юборсанг қўллаб,
Миннатдор бўлади умрбод, ҳар он.

223

Кўнглим!
Атрофга қарасанг — турли одамлар,
Истараси иссиқ — нурли одамлар.
Бири очик кўнгли, сўзлари жонбахш,
Бирлари индамас — сирли одамлар.

224

Кўнглим!
Она тил ўрнини ҳеч тил босолмас,
Бу тилни хор қилган униб-ўсолмас.
Унда мужассамдир бўлун, келажак,
Унингсиз ҳеч бир халқ узоқ яшолмас.

225

Кўнглим!
Тил ҳам парваришта, меҳрга зордир,
Эътиборсиз қолса, у абгор, хордир.
Уни қаттиқ севиб, авайлаган халқ
Бошида ҳар доим бахт қуши бордир.

134

221

Ко'нглим!
Бировлар ичидан қайнаб гап чиқар,
Лекин бундан, аytгил, қандай наф чиқар?
Яхшиям қуш эмас, одамдир улар,
Йо'қса уйқусида ҳам сайраб чиқар.

222

Ко'нглим!
О'згага насиҳат қилиш хо'б осон,
Қуруқ насиҳатни ёқтирмас инсон.
Қийналган чоғида юборсанг қўллаб,
Миннатдор бо'лади умрбод, ҳар он.

223

Ко'нглим!
Атрофга қарасанг — турли одамлар,
Истараси иссиқ — нурли одамлар.
Бир очик ко'нгли, со'злари жонбахш,
Бирлари индамас — сирли одамлар.

224

Ко'нглим!
Она тил о'рнини ҳеч тил босолмас,
Бу тилни хор қилган униб-о'солмас.
Унда мужассамдир бўлун, келажак,
Унингсиз ҳеч бир халқ узоқ яшолмас.

225

Ко'нглим!
Тил ҳам парваришта, меҳрга зордир,
Эътиборсиз қолса, у абгор, хордир.
Уни қаттиқ севиб, авайлаган халқ
Бoшида ҳар доим бахт қуши бордир.

135

226

Кўнглим!

Тилимиз фоятда шеваларга бой,
Бу ҳол тилимизга бахш этар чирой.
Ҳар бир шеванинг бор ўз жозибаси,
Гўё кўкда порлар қуёш, юлдуз, ой.

227

Кўнглим!

Она тилим ширин худди бол каби
Ва жуда тўзалдир тул, аёл каби.
Бир тинглаган яна тингласам дейди,
Имкони чексиздир ўй, ҳаёл каби.

228

Кўнглим!

Юксакка кўтарса, тилим кўтаргай,
Шу тилда олганим — билим кўтаргай.
Бу тил ҳалоскорим, суянчим менинг,
Энг оғир дамда ҳам кўнглим кўтаргай.

229

Кўнглим!

Юртимдан олисда юрган чоғимда,
Эшитилиб қолса гар қулоғимга,
Чексиз бир ҳаловат, ҳузур туярман,
Тилимни янада қаттиқ суярман.

230

Кўнглим!

Қорақалпоқ дўстим жуда шод эди,
Сабабин сўрасам, у шундай деди:
— Амударё суви оролға оқди,
Бу кўнглимда умид чироғин ёқди.

136

226

Ko'nglim!

Tilimiz g'oyatda shevalarga boy,
Bu hol tilimizga baxsh etar chiroy.
Har bir shevaning bor o'z jozibasi,
Go'yo ko'kda porlar quyosh, yulduz, oy.

227

Ko'nglim!

Ona tilim shirin xuddi bol kabi
Va juda go'zaldir gul, ayol kabi.
Bir tinglagan yana tinglasam deydi,
Imkoni cheksizdir o'yu, xayol kabi.

228

Ko'nglim!

Yuksakka ko'tarsa, tilim ko'targay,
Shu tilda olganim — bilim ko'targay.
Bu til haloskorim, suyanchim mening,
Eng og'ir damda ham ko'nglim ko'targay.

229

Ko'nglim!

Yurtimdan olisda yurgan chog'imda,
Eshitilib qolsa gar qulog'imga,
Cheksiz bir halovat, huzur tuyarman,
Tilimni yanada qattiq suyarman.

230

Ko'nglim!

Qoraqalpoq do'stim juda shod edi,
Sababin so'rasam, u shunday dedi:
- Amudaryo suvi orolga oqdi,
Bu ko'nglimda umid chirog'in yoqdi.

137

231

Кўнглим!

Сиринг билгач, олам бўйлаб ёйишар,
Балки бундан чексиз лаззат олишар.
Бундайларга асло айтмагил сиринг,
Йўқса сени минг бир кўйга солишар.

232

Кўнглим!

Куёшдан кучлироқ чинакам меҳр,
Унда жозоба бор, бор ажиб сеҳр.
У сабаб мукаарам, азиз эмасми,
Меҳрибон, фидойи оналар ахир?!

233

Кўнглим!

Оғзи куйган бўлса, қаттиқда не айб,
Айби ошкор бўлса, ёриқда не айб.
Пана-паналарда яшайди, энди
Кўзлари қамашса, ёруғда не айб.

234

Кўнглим!

Отим бирдан ўзғир бўлиб қолмайдди,
Парварिश қилмасам, бермасам меҳр.
Орзум ушалиши насиб бўлмайди,
Ҳаракат қилмасам, қилмасам сабр.

235

Кўнглим!

Тўлқин-тўлқин сочларининг тўлқинига чўмилдим,
Елқин-ёлқин кўзларининг ёлқинига кўмилдим.
Ойдан оппоқ юзларининг шубласида исиниб,
Узун-узун киприкларнинг соясида дам олдим.

231

Кo'nglim!

Siring bilgach, olam bo'ylab yoyishar,
Balki bundan cheksiz lazzat olishar.
Bundaylarga aslo aytmagil siring,
Yo'qsa seni ming bir ko'uga solishar.

232

Кo'nglim!

Quyoshdan kuchliroq chinakam mehr,
Unda joziba bor, bor ajib sehr.
U sabab mukarram, aziz emasmi,
Mehribon, fidoiy onalar axir?!

233

Кo'nglim!

Og'zi kuygan bo'lsa, qatiqda ne ayb,
Aybi oshkor bo'lsa, yoriqda ne ayb.
Pana-panalarda yashadi, endi
Ko'zlar qamashsa, yorug'da ne ayb.

234

Кo'nglim!

Otim birdan o'zg'ir bo'lib qolmaydi,
Parvarish qilmasam, bermasam mehr.
Orzum ushalishi nasib bo'lmaydi,
Harakat qilmasam, qilmasam sabr.

235

Кo'nglim!

To'liq-to'liq sochlarining to'liqiga cho'mildim,
Yo'iq-yo'iq ko'zlarining yo'iqiga ko'mildim.
Oydan orpoq yuzlarining shu'lasida isinib,
Uzun-uzun kiriklarining soyasida dam oldim.

236

Кўнглим!

Фақат ўзни ўйлаш ярамас иллат,
Бир-бирин қўллашдан юксалар миллат.
Аҳил, иноқ бўлиб яшagan халқдан
Кулфат чекинади, чекинар зиллат.

237

Кўнглим!

Ватан бир наводир, тинглаб тўймайман,
Ватан бир оятдир, тилдан қўймайман.
Ватан бир онадир, суюкми ёрдир,
Қай жойда бўлсам ҳам уни ўйлайман.

238

Кўнглим!

Аслида Ватаннинг бир заррасиман,
Жигарпорасиман, кўз қорасиман.
Унинг бахт-иқболи менинг ҳам бахтим,
Бахтиёр ватаннинг хур боласиман.

239

Кўнглим!

Бобом яшаб ўтган, момом яшagan,
Отам яшаб ўтган, онам яшagan.
Шундайин муқаддас заминдир ватан,
Мен ҳам яшапман, болам яшагай.

240

Кўнглим!

Бу — муқаддас тулпроқ, ватан тулпроғи,
Нурларга кўмилган унинг хар ёғи.
Мен учун ифтихор, мен учун бахтдир,
Унинг қучоғида мангу қолмоғим.

236

Ко'нглим!

Фақат о'зни о'йлаш ярамас иллат,
Бир-бирин қо'ллашдан юксалар миллат.
Аҳил, иноқ бо'либ яшagan халқдан
Кулфат чекинади, чекинар зиллат.

237

Ко'нглим!

Ватан бир наводир, тинглаб то'ўмаyman,
Ватан бир оятдир, тилдан қо'ўмаyman.
Ватан бир онадир, суюкли юрдир,
Қай joyда бо'lsam ham uni o'ўлаyman.

238

Ко'нглим!

Аслида Ватanning bir zarrasiman,
Jigarporasiman, ko'z qorasiman.
Uning baxt-iqboli mening ham baxtim,
Baxtiyor vatanning hur bolasiman.

239

Ко'нглим!

Бобом yashab o'tgan, momom yashagan,
Otam yashab o'tgan, onam yashagan.
Shundayin muqaddas zamindir vatan,
Men ham yashayman, bolam yashagay.

240

Ко'нглим!

Bu — muqaddas tulproq, vatan tulprog'i,
Nurlarga ko'milgan uning har yog'i.
Men uchun iftixor, men uchun baxtdir,
Uning quchog'ida mangu qolmog'im.

241

Кўнглим!
Юртимнинг тупроғи олдий эмас, зар,
Туркираб ўсади чўп эксанг агар.
Юртимни билмаган бунни лоф дейди,
Кўрган сайёҳ эса ҳайратга тушар.

242

Кўнглим!
Ўзбекистонимни жондай севаман,
Ҳаводай севаман, нондай севаман.
Қилириб-қилириб охир топилган,
Беморга қуйилган қондай севаман.

243

Кўнглим!
Жаннат монанд жойлари кўп юртимнинг,
Паричеҳра ойлари кўп юртимнинг.
Меҳмонидан жонини ҳам аямас,
Танти, сахий бойлари кўп юртимнинг.

244

Кўнглим!
Самарқанд, Бухоро — қадим шаҳарлар,
Юртим бағридаги олтин, тавҳарлар.
Яралгандан буён ҳайратда дунё,
Ўтса ҳамки қанча ёзу баҳорлар.

245

Кўнглим!
Булбул яшолмайдигулсиз, чамансиз,
Ҳаттоки қуйлашга қолмайдигул.
Инсон яшолмайдигул она ватансиз,
Фақат унда бўлар бутун ҳасили.

142

241

Ко'нглим!
Yurtimning tuprog'i oddiy emas, zar,
Turkibrab o'sadi cho'r eksang agar.
Yurtimni bilmagan buni lof deydi,
Ko'rgan sayohat esa hayratga tushar.

242

Ко'нглим!
O'zbekistonimni jonday sevaman,
Havoday sevaman, nonday sevaman.
Qidirib-qidirib oxir topilgan,
Bemorga quyilgan qonday sevaman.

243

Ко'нглим!
Jannat monand joylari ko'r yurtimning,
Parichehra oylari ko'r yurtimning.
Mehtonidan jonini ham ayamasa,
Tanti, saxiy boylari ko'r yurtimning.

244

Ко'нглим!
Samargand, Buxoro — qadim shaharlar,
Yurtim bag'ridagi oltin, tavharlar.
Yaralgandan buyon hayratda dunyo,
O'tsa hamki qancha yozu bahorlar.

245

Ко'нглим!
Bulbul yasholmaydi gulsiz, chamanisiz,
Hattoki kuylashga qolmaydi holi.
Inson yasholmaydi ona vatansiz,
Faqat unda bo'lar butun hayoli.

143

246

Кўнглим!
Ўзбекистондай юрт йўқдир дунёда,
Унга муҳаббатим, меҳрим зиёда.
Усиз зимистонга чулғанадирман,
У билан қучоғим тўлар зиёга.

247

Кўнглим!
Юртим боғларининг мевалари бол,
Илк бора тоғанлар қолишадй лол.
Ҳавас қилишадй юртдошларимга,
“Намунача ширин?” деб беришар савол.

248

Кўнглим!
Қабристонга кирсам, тортаман хушёр,
Фоний дунё сири бўлади ошкор.
Жуда кўп нарсалар кўринар майда,
Кўзимга ёш тўлиб, оқар шашқатор.

249

Кўнглим!
Умримиз негадир туюлар мангу.
Ҳеч қачон тарк этмас бизни бу туйғу.
Олдинга интилиб яшайверамиз,
Нақадар сирғидир инсоннинг умри.

250

Кўнглим!
Кампирга айланар сарқомат қиз,
Баходир йигитлар чоғдир бир кун.
Лекин кўнгли эса навқирон ҳаргиз,
Вақт ҳам қаритолмас ҳеч қачон уни.

144

246

Ко'нглим!
О'zbekistonda урт уо'қдир dunyoda,
Unga muhabbatim, mehrim ziyoda.
Usiz zimistonga chulg'anadirman,
U bilan quchoғ'im to'lar ziyoga.

247

Ко'нглим!
Yurtim bog'larining mevalari bol,
Ilk bora toғanlar qolishadi lol.
Havas qilishadi yurtdoshlarimga,
“Namuncha shirin?” deb berishar savol.

248

Ко'нглим!
Qabristonga kirsam, tortaman hushyor,
Foniу dunyo siri bo'ladi oshkor.
Juda ko'p narsalar ko'tinag mayda,
Ko'zimga yosh to'lib, oqar shashqator.

249

Ко'нглим!
Umrimiz negadir tuyular mang'u.
Hеч qachon tark etmas bizni bu tuyg'u.
Oldinga intilib yashayveramiz,
Naqadar sirgidir insonning umri.

250

Ко'нглим!
Kampirga aylanar sarqomat qiz,
Bahodir yigitlar choldir bir kuni.
Lekin ko'ngil esa navqiron hargiz,
Vaqt ham qaritolmas hech qachon uni.

145

251

Кўнглим!
Гоҳо бойлик бериб, синаса олмоқ,
Қашшоқлик ё ғамда синар экан тоҳ.
Ушбу синовлардан ўтолмас асло,
Ким ҳушёр бўлмаса, бўлмаса огоҳ.

252

Кўнглим!
Олис-олисларни кўрар кўзимиз,
Қиличдай кескирдир айтар сўзимиз.
Лекин кўнглимизни англаб етмадик,
Тўла англамадик ўзни ўзимиз.

253

Кўнглим!
Ўттиз еттинчи йил — даҳшатли сана,
Разолат, қабохат қилди тантана.
Сонсиз олтин бошлар чопилиб кетди,
Бу собиқ тузумга эди анъана.

254

Кўнглим!
Инсоннинг кўнгли ҳам чексиз фазодир,
Инсон ўйларини унга ёзди.
Уларни уқмокнинг йўқдир илжои,
Балки улар бадбин, балки тозадир.

255

Кўнглим!
Севмаса севмасин, мен ҳам севмасман,
Кўнгли бермаганга кўнгли бермасман.
Аммо чиқолмайман сўзим устидан,
Мен унинг олдидан марғур эмасман.

146

251

Ко'нглим!
Гоҳо бойлик бериб, синаса олмоҳ,
Қашшоқлик уо ғ'амда синар экан гоҳ.
Ушбу синовлардан о'толмас асло,
Ким ҳушвор бо'лмаса, бо'лмаса огоҳ.

252

Ко'нглим!
Олис-олисларни ко'рар ко'зимиз,
Қиличдай кескирдир аytар сo'зимиз.
Лекин ко'нглимизни англаб yetмадик,
То'ла англамадик о'зни о'зимиз.

253

Ко'нглим!
О'ттиз yetтинчи yил — dahшатли сана,
Разолат, qабoҳat қиди таnтана.
Сонсиз олтин бoшлар чoпилиб кетди,
Бу sobиқ тузумга edi аn'ана.

254

Ко'нглим!
Инсоннинг ко'нгли ham чексиз fazодир,
Инсон о'ylарини унга yozадир.
Ulарни uқmokнинг yо'qдир iloji,
Balkи ulар badbin, balkи tozадир.

255

Ко'нглим!
Sevmаса sevmасин, мен ham sevmасман,
Ko'ngил berмаганга ko'ngил berмаcман.
Аmmo чиқолмайман so'zim устидан,
Men унинг oldида mag'gur эмасман.

147

256

Кўнглим!

Мен гулдан гапирсам, у пулдан сўзлар,
Ердан бахт қилдирсам, у кўждан излар.
Кулганимни кўрса, ўқиб бўзлар,
Сув билан оловга ўхшаймиз бизлар.

257

Кўнглим!

Кимдир шижоати, ақли туфайли,
Ҳаётда ўз бахтин, ўрнини топар.
Кимдир танбал, ялқовлиги туфайли,
Топган бахтини ҳам дарров йўқотар.

258

Кўнглим!

Айёрлик ярашар фақат тулкига,
Айёрлик қилганлар қолар кулгига.
Тўғри сўз, самимий бўлиш қандай соз,
Мазмун бағишлайди улар умрга.

259

Кўнглим!

Мен доимо яхши ният қилгайман,
Бад ўйга бормоқни уят билгайман.
Айримларга бордин эътирозларим,
Лек аввал ўзни тарбият қилгайман.

260

Кўнглим!

Агар озодликнинг етсак қадрига,
Бахтиёр яшаймиз ватан бағрида.
Бунинг исботидир шу бутунги кун,
Кеча яшар эдик зулмат қариди.

148

256

Ko'nglim!

Men guldan gapirsam, u puldan so'zlar,
Erdan baxt qidirsam, u ko'kdan izlar.
Kulganimni ko'rsa, o'qib bo'zlar,
Suv bilan olovga o'xshaymiz bizlar.

257

Ko'nglim!

Kimdir shijoati, aqli tufayli,
Hayotda o'z baxtin, o'g'ini topar.
Kimdir tanbal, yalqovligi tufayli,
Topgan baxtini ham darrov yo'qotar.

258

Ko'nglim!

Ayvorlik yaraslar faqat tulkinga,
Ayvorlik qilganlar qolar kulgiga.
To'g'ri so'z, samimiy bo'lish qanday soz,
Mazmun bag'ishlaydi ular umrga.

259

Ko'nglim!

Men doimo yaxshi niyat qilgayman,
Bad o'uga bormoqni uyat bilgayman.
Ayrimlarga bordir e'tirozlarim,
Lek avval o'zni tarbiyat qilgayman.

260

Ko'nglim!

Agar ozodlikning yetsak qadriga,
Baxtiyor yashaymiz vatan bag'rida.
Buning isbotidir shu bugungi kun,
Kecha yashar edik zulmat qa'rida.

149

261

Кўнглим!

Мустақиллик шундай улў неъматки,
Уни таърифлашга ҳатто сўз етмас.
Мустақил юрт эса шундайин юртки,
Қўчоғидан бахт ҳам, баҳор ҳам кетмас.

262

Кўнглим!

Қушларни боқамиз, баллиқ боқамиз.
Ўйлаймиз: уларга жуда ёқамиз.
Лекин озодлик — бу тенгсиз неъматдир,
Синовлардан ўтган ушбу баҳомиз.

263

Кўнглим!

От айланиб, қозигини топгайдир,
Ўз қисмати — ёзигини топгайдир.
Озод эдик, банди бўлдик, озодмиз,
Бунда ҳикмат тасдиғини топгайдир.

264

Кўнглим!

Озодлик инсонни кўтарса кўкка,
Тутқунлик борни ҳам чиқартай йўққа.
Олпохта минг шукр, яна озодмиз,
Ватан деб ёнганлар учмагай ўққа.

265

Кўнглим!

Инсоннинг зўрликка йўқдир тоқати,
Зўровонга нафрат билан боқади.
Инсонга азалдан меҳру оқибат,
Озодлик бағрида яшаш ёқади.

150

261

Кўнглим!

Мустақиллик шундай улў неъматки,
Уни таърифлашга ҳатто сўз етмас.
Мустақил юрт эса шундайин юртки,
Қўчоғидан бахт ҳам, баҳор ҳам кетмас.

262

Кўнглим!

Қушларни боқамиз, баллиқ боқамиз.
Ўйлаймиз: уларга жуда уюқамиз.
Лекин озодлик — бу тенгсиз неъматдир,
Синовлардан о'тган ушбу баҳомиз.

263

Кўнглим!

От айланиб, қозиг'ини торгаудир,
Ўз қисмати — ёзиг'ини торгаудир.
Озод эдик, банди бў'лдик, озодмиз,
Бунда ҳикмат тасдиғ'ини торгаудир.

264

Кўнглим!

Озодлик инсонни кўтарса кўкка,
Тутқунлик борни ҳам чиқаргай уо'ққа.
Олпохта минг шукр, яна озодмиз,
Ватан деб уюганлар учмагай о'ққа.

265

Кўнглим!

Инсоннинг зўрликка уо'қдир тоқати,
Зўровонга нафрат билан боқади.
Инсонга азалдан меҳру оқибат,
Озодлик бағ'рида яшаш уюқади.

151

266

Кўнглим!

Баралла айтолсам дилдаги сўзни,
Демак яшаётман бахтиёр, озод.
Демак англаганман ўзликни, ўзни,
Демак сен ободсан, ватан ҳам обод.

267

Кўнглим!

Ватан тарихини халқ яратди,
Ўз кўллари билан бахт яратди.
Айниқса у озод, мустақил бўлса,
Бутун жаҳон бўйлаб донт таратади.

268

Кўнглим!

Озодлик таъминни тогган одамнинг
Дунёга қараши бўлар бошқача.
Ўз тақдиримда англадим бунини,
Сезмаган эканман ўттиз ёшгача.

269

Кўнглим!

Кўзлари, қошлари, сочи қора қиз,
Қора ранг нуфусин оширди чексиз.
Тўлин ойдек юзи эса оқ рангини
Бор ранглар ичида айтади тенгсиз.

270

Кўнглим!

Севгану сеvilган ҳар битта инсон
Бахтидек бахт йўқдир дунёда, инон.
Йўқса нега бизни ром этар беҳад,
Ошиқлар ҳақида битилган дoston?!

152

266

Ко'нглим!

Baralla aytoilsam dildagi so'zni,
Demak yashayotman baxtiyor, ozod.
Demak anglaganman o'zlikni, o'zni,
Demak sen obodsan, vatan ham obod.

267

Ко'нглим!

Vatan tarixini xalq yaratadi,
O'z qo'llari bilan baxt yaratadi.
Ayniqsa u ozod, mustaqil bo'lsa,
Butun jahon bo'ylab dong taratadi.

268

Ко'нглим!

Ozodlik ta'mini toggan odamning
Dunyoga qarashi bo'lar boshqacha.
O'z taqdirimda angladim buni,
Sizmagani ekanman o'ttiz yoshgacha.

269

Ко'нглим!

Ko'zlari, qoshlari, sochi qora qiz,
Qora rang nufuzin oshirdi cheksiz.
To'lin oydek yuzi esa oq rangni
Bor ranglar ichida aytadi tengsiz.

270

Ко'нглим!

Sevganu sevilgan har bitta inson
Baxtidek baxt yo'qdir dunyoda, inon.
Yo'qsa nega bizni rom etar behad,
Oshiqlar haqida bitilgan doston?!

153

271

Кўнглим!

Ўз қадринг билмасанг, ҳурмат қилмаслар,
Муносиб бўлмасанг, ҳиммат қилмаслар.
Мошинг мақтасанг ҳам кўкка кўтариб,
У яроқсиз бўлса, қиммат қилмаслар.

272

Кўнглим!

Ҳар қанча эзсанг ҳам юмшамайди тош,
Дийдаси қотганлар тўкмайди кўз ёш.
Лоқайд одамларга дардингни айтсанг,
Бепарво тинглашиб, чимиради қош.

273

Кўнглим!

Озор чекканингда чекмаса озор,
Қувонган чоғингда қувонмаса тар,
Уни содиқ дўст деб бўлурми ахир?!
Ундан ёт аълодир, ёв яхши минг бор.

274

Кўнглим!

Оловга фарқи йўқ: куйдиравегади,
Унга яқинлашсанг, яқин келса у.
Севганингга фарқсиз: суйдиравегади,
Сенга яқин бўлса, узоқ бўлса у.

275

Кўнглим!

Камтар одам манманликка берилмас,
Давраларда мен зўрман деб керилимас.
У доимо тулпроқ каби ҳокисор,
Ёлғон айтиб, имонидан айрилмас.

154

271

Ко'нглим!

O'z qadring bilmasang, hurmat qilmaslar,
Munosib bo'lmasang, himmat qilmaslar.
Moling maqtasang ham ko'kka ko'tarib,
U yaroqsiz bo'lsa, qimmat qilmaslar.

272

Ко'нглим!

Har qancha ezsang ham yumshamaydi tosh,
Diydasi qotganlar to'kmaydi ko'z yosh.
Loqayd odamlarga dardingni aytasang,
Beparvo tinglashib, chimiradi qosh.

273

Ко'нглим!

Ozor chekkaningda chekmasa ozor,
Quvongan chog'ingda quvonmasa tar,
Uni sodiq do'st deb bo'lurmi axir?!
Undan yot a'lodir, yov yaxshi ming bor.

274

Ко'нглим!

Olovga farqi yo'q : kuydiravegadi,
Unga yaqinlashsang, yaqin kelsa u.
Sevganingga farqsiz : suydiravegadi,
Senga yaqin bo'lsa, uzoq bo'lsa u.

275

Ко'нглим!

Kamtar odam manmanlikka berilmas,
Davralarda men zo'man deb kerilmas.
U doimo tulproq kabi hokisor,
Yolg'on aytib, imonidan ayilmas.

155

276

Кўнглим!

Шон-шухратга, мукофотга ўчмасман,
Хушоматга, мақтовларга ўчмасман.
Мен учун муҳими ижоддир бешак,
Пул, бойлик деб асло ундан кечмасман.

277

Кўнглим!

Тафаккурнинг чегараси бўлмайди,
Нега етмоқ бўлса, етмай кўймайди.
Бунга йиллар гувоҳ, асрлар гувоҳ,
Шунда ҳам у кашфиёт деб тинмайди.

278

Кўнглим!

Тавба, йиртиқ шим ҳам мода бўларкан,
Одам бой бўлиб ҳам гадо бўларкан.
Тушуниб бўлмайди инсон зотига,
Тўғри деб билгани хато бўларкан.

279

Кўнглим!

Сув қадри қакраган чўлда билинар,
Оқуш пўзалити кўлда билинар.
Дўст тутинмоқ бўлсанг, бирга сафар қил,
Одамнинг қимлиги йўлда билинар.

280

Кўнглим!

Борингда дўст бўлиб, бошда тутарлар,
Йўфингда ёв бўлиб, тошга тутарлар.
Уларга суяниб бўлмас ҳеч қачон,
Чўнтагингга қараб, ошна тутарлар.

156

276

Ko'nglim!

Shon-shuhratga, mukofotga o'chmasman,
Xushomadga, maqtovlarga uchmasman.
Men uchun muhimi ijoddir beshak,
Pul, boylik deb aslo undan kechmasman.

277

Ko'nglim!

Tafakkurning chegarasi bo'lmaydi,
Nega yetmoq bo'lsa, yetmay qo'lmaydi.
Bunga yillar guvoh, asrlar guvoh,
Shunda ham u kashfiyot deb tinmaydi.

278

Ko'nglim!

Tavba, yirtiq shim ham moda bo'lar kan,
Odam boy bo'lib ham gado bo'lar kan.
Tushunib bo'lmaydi inson zotiga,
To'g'ri deb bilgani xato bo'lar kan.

279

Ko'nglim!

Suv qadri qaqragan cho'lda bilin ar,
Oqush go'zalligi ko'lda bilin ar.
Do'st tutimmoq bo'lsang, birga safar qil,
Odaming kimligi yo'lda bilin ar.

280

Ko'nglim!

Boringda do'st bo'lib, boshda tutarlar,
Yo'g'ingda yov bo'lib, toshga tutarlar.
Ular ga suyanib bo'lmas hech qachon,
Cho'ntagingga qarab, oshna tutarlar.

157

281

Кўнглим!

Ой узок бўлса-да кўриб тураман,
Нуридан баҳраманд бўлиб тураман.
Лекин бир офтоб бор, яқин жуда ҳам,
Тафтин раво кўрмас, тўниб юраман.

282

Кўнглим!

Тулки шумлик билан тирик бўлса гар,
Бўри тишларига ишониб яшар
Ақли билан ерда булок ва танҳо,
Шунданми, яқиндир олпоҳга башар.

283

Кўнглим!

Хаттоки шернинг ҳам қушандаси бор,
Шер унинг олдида бечора, абгор.
Инсон қушандаси наҳотки инсон?!
Бунга дуч келамиз ҳаётда кўп бор.

284

Кўнглим!

Уйда шодлик йўқдир, она бўлмаса,
Бошдан фойда йўқдир, тана бўлмаса.
Гурунлдан заррача маъно топмайсан,
Агар суҳбатдошинг доно бўлмаса.

285

Кўнглим!

Кимнингдир наздида гўр, пашшадайман,
Гўёки истаса ташлагай эзиб
Кимнингдир наздида шерга ўхшайман,
Кучу қудратимни тургайдир сезиб.

158

281

Ко'нглим!

Оу узоқ бо'lsa-да ко'риб тураман,
Нуридан баҳраманд бо'либ тураман.
Лекин бир офтоб бор, яқин жуда ҳам,
Тафтин раво ко'тмас, то'ниб уйраман.

282

Ко'нглим!

Tulki shumlik bilan tirik bo'lsa gar,
Bo'ri tishlariga ishonib yashar
Aqli bilan yerda buyuk va tanho,
Shundanmi, yaqindir ollohga bashar.

283

Ко'нглим!

Hattoki sherning ham qushandasi bor,
Sher uning oldida bechora, abgor.
Inson qushandasi nahotki inson?!
Bunga duch kelamiz hayotda ko'p bor.

284

Ко'нглим!

Uyda shodlik yo'qdir, ona bo'lmasa,
Boshdan foyda yo'qdir, tana bo'lmasa.
Gurungdan zarracha ma'no topmaysan,
Agar suhbatdoshing dono bo'lmasa.

285

Ко'нглим!

Kimningdir nazdida g'o'r, pashshadayman,
Go'yoki istasa tashlagay ezib
Kimningdir nazdida sheriga o'xshayman,
Kuchni qudratimni turgaydir sezib.

159

286

Кўнглим!
Бемор шифо топди илон захридан,
Аёл туғмай, ўтди бола бахридан...
Ҳоятда ажибдир бу кўҳна дунё,
Ҳайратга тушаман жумбоқларидан.

287

Кўнглим!
Кимдир умр бўйи бино қуради,
Шу билан ўзига тиклайди ҳайкал.
Биров бор, ўзига бино қўяди,
Ўзгалар ташвишин қилмас ҳеч маҳал.

288

Кўнглим!
Эҳтиёт бўлиб юр деса бир дўстим,
Бир дўстим таваккал қилавер дейди.
Лекин юратимда уйронган сезги,
Ўз фикрингда собит қолавер дейди.

289

Кўнглим!
Билмаган одамга бир ҳарф ўргатиш,
Қанча қийинлигин ўргатган билар.
Оддий ўқувчидан даҳо яратиш,
Фақат чин устознинг кўлидан келар.

290

Кўнглим!
Мақтаниб қолди-ку менга бир одам:
«Шеърни ёқтирмайман зарра бўлса ҳам».
Шунда унга қараб «Алҳазар!» дедим,
Чунки сўзларидан ларзага келдим.

286

Кo'nglim!
Bemor shifo topdi ilon zahridan,
Ayol tug'may, o'tdi bola bahridan...
G'oyatda ajibdir bu ko'hna dunyo,
Hayratga tushaman jumboqlaridan.

287

Ko'nglim!
Kimdir umr bo'yi bino quradi,
Shu bilan o'ziga tiklaydi haykal.
Birov bor, o'ziga bino qo'yadi,
O'zgalar tashvishin qilmas hech mahal.

288

Ko'nglim!
Ehtiyot bo'lib yur desa bir do'stim,
Bir do'stim tavaqqal qilaver deydi.
Lekin yuragimda uyg'ongan sezgi,
O'z fikringda sobit qolaver deydi.

289

Ko'nglim!
Bilmagan odamga bir harf o'rgatish,
Qancha qiyinligin o'rgatgan bilat.
Oddiy o'quvchidan daho yaratish,
Faqat chin ustozning qo'lidat kelat.

290

Ko'nglim!
Maqtanib qoldi-ku menga bir odam:
«She'rni yoqitmayman zarra bo'lsa ham».
Shunda unga qarab «Alhazar!» dedim,
Chunki so'zlaridan larzaga keldim.

291

Кўнглим!

Юз-кўзлари тип-тиник, ёришган осмон дейсан,
Хар бир айтган сўзини шёр дейсан, дoston дейсан.
Боқишлари юракни ёндириб, куйдиради,
Пари-пайкарми дейсан, бу қандай инсон дейсан.

292

Кўнглим!

Агар ерда олтин кўп бўлганида,
У бунча қадрли бўлар эдимми?
Бу дунёда кутиш йўқ бўлганида,
Одамлар сабри бўлар эдимми?

293

Кўнглим!

Гуллар худди аёлларга ўхшайди,
Бизларни доимо солар хайратга.
Гуллар соҳир хаёлларга ўхшайди,
Гўзаллик бахш этар кўҳна ҳаётга.

294

Кўнглим!

Кимнингдир эътибор жонига тегиб,
Кимдир эътибордан четда қолмасин.
Кимгадир худо кўш кўллаб бериб,
Кимдир боридан ҳам жудо бўлмасин.

295

Кўнглим!

Яхши инсон дея айтамыз кимни,
Кимни шарафлаймиз кўтариб бошга?
Адолат, халқ дея яшаса кимки,
Энг яхши, энг улғ инсон ҳам ўша!

162

291

Ko'nglim!

Yuz-ko'zları tip-tiniq, yorishgan osmon deysan,
Har bir aytgan so'zini she'r deysan, doston deysan.
Boqishlari yurakni yondirib, kuydiradi,
Pari-paykarmi deysan, bu qanday inson deysan.

292

Ko'nglim!

Agar yerda oltin ko'r bo'lganida,
U buncha qadrlı bo'lar edimi?
Bu dunyoda kutish yo'q bo'lganida,
Odamlar sabrli bo'lar edimi?

293

Ko'nglim!

Gullar xuddi ayollarga o'xshaydi,
Bizlarni doimo solar hayratga.
Gullar sohir xayollarga o'xshaydi,
Go'zallik baxsh etar ko'hna hayotga.

294

Ko'nglim!

Kimningdir e'tibor joniga tegib,
Kimdir e'tibordan chetda qolmasin.
Kimgadir худо qo'sh qo'llab berib,
Kimdir boridan ham judo bo'lmasin.

295

Ko'nglim!

Yaxshi inson deya aytamiz kimni,
Kimni sharaflaymiz ko'tarib boshga?
Adolat, xalq deya yashasa kimki,
Eng yaxshi, eng ulug' inson ham o'sha!

163

296

Кўнглим!

Ҳар кимнинг овози ўзига хосдир,
Феълу атворига, жисмига мосдир.
Ҳамма қуш ҳам бўлбул бўлмаганидек,
Сохта хонандалар кўпчилиги ростдир.

297

Кўнглим!

Соҳи узун қизлар қолмагай наҳот,
Наҳот улар "Қизил китоб" га киргай?
Наҳотки уларни келгуси авлод
Фақат киноларда, китобда кўргай?

298

Кўнглим!

Самимий қулгунинг кўпдир фойдаси:
Вужуд енгиллашиб, айрайди юрак.
Сохта қулгунларнинг йўқдир шайдоси,
Улардан бутунлай воз кечмоқ керак.

299

Кўнглим!

Ўзидан бошқани кам кўрган одам,
Бир кун афсус чекиб, бўлгай боши ҳам.
Кибру ҳаво фақат нодонларга хос,
Барчани тенг кўрар ахир оллоҳ ҳам.

300

Кўнглим!

Шамол ҳам тинади, дарё тинмайди,
Зулмат йўқолгач ҳам зиё тинмайди.
Яхшилик, ёмонлик кўрашар ҳамон,
Адолат бор жойда рўё тинмайди.

164

296

Ко'нглим!

Har kimga o'ziga xosdir,
Fe'lu atvoriga, jismiga mosdir.
Hamma qush ham bulbul bo'lmaganidek,
Sokhta xonandalar ko'pligi rostdir.

297

Ко'нглим!

Sochi uzun qizlar qolmagay nahot,
Nahot ular "Qizil kitob" ga kirgay?
Nahotki ularni kelgusi avlod
Faqat kinolarda, kitobda ko'rgay?

298

Ко'нглим!

Samimiy kulguning ko'pdir foydasi:
Vujud yengillashib, yayraydi yurak.
Sokhta kulgularning yo'qdir shaydosi,
Ulardan butunlay voz kechmoq kerak.

299

Ко'нглим!

O'zidan boshqani kam ko'rgan odam,
Bir kun afsus chekib, bo'lgay boshi ham.
Kibru havo faqat nodonlarga xos,
Barchani teng ko'rar axir olloh ham.

300

Ко'нглим!

Shamol ham tinadi, daryo tinmaydi,
Zulmat yo'qolgach ham ziyo tinmaydi.
Yaxshilik, yomonlik kurashar hamon,
Adolat bor joyda ro'yo tinmaydi.

165

301

Кўнглим!
Тез юришни истаса ҳам тошбақа,
Имиллаб юришдан ўтмас нарига.
Аммо одамлар бор: навқирон ёшда
Ҳаракат қилишар ўхшаб қарига.

302

Кўнглим!
Фақат зорланишдан наф йўқдир зарра,
Ҳаракат яхшидир бундан юз карра.
Интилиб етман орузларимга,
Забт этилажақдир ҳар қандай марра.

303

Кўнглим!
Ўзбек фахрланар боласи билан,
Беқийс боғлари, даласи билан.
Лекин пул, бойлиги билан мақтанмас,
Фахр этар куй-қўшиқ — ноласи билан.



301

Ко'нглим!
Тез уюришни истаса ҳам тошбақа,
Имиллаб уюришдан о'tмас нарига.
Аммо одамлар бор: навқирон уюшда
Наракат қилишар о'хшаб қарига.

302

Ко'нглим!
Фақат зорланishдан наф уо'қдир загга,
Наракат уахшидир бундан ууз катта.
Интиlib yetaman огузуларимга,
Забт этилажақдир ҳар қандау марра.

303

Ко'нглим!
О'zbek фахрланар боласи билан,
Беқууос боғ'лари, даласи билан.
Лекин пул, боулиги билан мақтанмас,
Фахр етар куй-қо'shiқ — ноласи билан.



Qizilga Inventarizatsiya
 o'lashtirildi
 30.04.2017 yil. CHPIK

МУНДАРИЖА

Батан	4	Кўча	26
Ўзбек	6	Китоб ўқиматан одам	28
Содиқ қушлар	8	Тикиласиз мунчалар дединг	30
Она тилим	10	«Титаник» фильминини кўриб	32
Богалик	12	Хар бир шонр ҳаётида	34
Донақизгилдоқ	14	Қизлар	36
Богалигимда	16	Ҳаёл	38
Нарўзсан	18	Дарактар	40
Сингилларим	20	«Ошиқ» йигит мактуби	42
Саратон ва кўча	22	Парво қилмади	44
Саф кўшини	24	Кўнглим	46



КўНГИЛГА МУРОЖААТ

Шеърлар

«NOSHIR» — Тошкент — 2011

Муҳаррир **С.Сафоева**
 Техник муҳаррир **Д.Мамалалиева**
 Мушавир **Ш.Одиглов**
 Саҳифаловчи **С.Пўлатов**

Босишга руҳсат этилиди 05.01.2011 й. Бичими 84x108 1/32. «Times
 TAD» гарнитураси. Офсет қотоз. Офсет босма усулида чоп этилиди.
 Шартли б.т. 10,5. Адади 1000 нусха. Буюртма № 2.

«NOSHIR» нашриёти, лицензия А1 № 096. Тошкент ш.,
 Лантар кўчаси, 78.

«NOSHIR» Ўзбекистон-Германия қўшма корхонасининг босмахона-
 сила чоп этилиди. Тошкент ш., Лантар кўчаси, 78.